Ko‘rinadiki, har qanday nutqiy harakatda ma’lum maqsad hamda so‘zlovchining mo‘ljali mavjud bo‘lib, unga bog‘liq holda turli nutqiy ifodalar shakllanadi. Badiiy asar tilining ifodalili, obrazliligini ta’minlash, tasviriylikni oshirish maqsadida tilshunoslikda uslubiy figuralar deb yuritiluvchi poetik sintaksis vositalaridan foydalaniladi. She’riy asarlar tilida ko‘p qo‘llanuvchi anafora, epifora, ritorik so‘roq va ritorik xitob, antiteza, inversiya kabi vositalar shular jumlasidandir. “Inversiya deb gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi yoki gap bo‘laklari joylashish tartibining ma’lum bir maqsad bilan o‘zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og‘zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi: Bolangni olib ketsang-chi! Kurmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o‘tiripti! (A.Qahhor) - Tashla u toshni! – deb do‘q qilib qoldi onam. Ko‘chaning o‘rtasidan haydatib ketdim aravani. – Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? - deb qolsa bo‘ladimi shunda. (Sh.Xolmirzayev)

She’riyatda esa inversiya ifodalilikni, ohangdorlikni va ta’sirchanlikni ta’minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ko‘p ishlatiladi.”

Poetik matnlarda inversiyadan foydalanish jumlaga ifodalilik, ma’nolilik bag‘ishlashda gapda so‘zlarning noodatiy tartibda joylashishiga asoslanadi. Gaplarning an’anaviy tartibida gap boshida aksariyat hollarda eganing, gap oxirida esa kesimning izchillikda joylashishi ma’lum. She’riy asarlar tilida biror bir so‘zni ohang jihatdan ajratish, ta’kidlab ko‘rsatish ehtiyoji kuchli bo‘ladi. Poetik matnlarda inversiya urg‘u, ma’noviy, ritm, shuningdek, lisoniy obrazi manzara hosil qilish vazifasini bajaradi. Nasriy matnlarda muallifning qahramonlarga munosabatini ifodalash va ularning emotsional holatini ifodalashda inversiya mantiqiy urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish uchun xizmat qiladi.

Nutqda emotsionallik va ekspressivlik faqatgina til birliklarini tanlashga emas, balki gapda so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirishga ham bog‘liq. Gapda ishtirok etuvchi har bir bo‘lakning o‘z o‘rni bor. Nutqning boshqa ko‘rinishlarida gapda so‘zlarning ma’lum tartibda qo‘llanishida belgilangan qoidalarga amal qilinsa, she’riyatda bu tartibga ko‘pda amal qilinmaydi. Muallif poetik nutq talabidan kelib chiqib, odatdagi tartibga rioya qilmaydi. Gap bo‘laklari odatdagi tartibining buzilishi bilan gapdagi biror bo‘lakka alohida urg‘u beriladi, ajratib ko‘rsatish bilan maxsus konnotatsiyaga ega bo‘ladi, emotsional-ekspressivlik ta’minlanadi. Gapning sintaktik jihatdan bo‘laklarining o‘zaro aloqasi va muallif maqsadiga bo‘ysungan holda odatdagi tartibning buzilishi she’riy asarlar tili uchun xos bo‘lib, poetik asarlar tilining o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Gap bo‘laklarining odatdagi tartibining buzilishi **so‘zlashuv nutqida**, asosan esa **badiiy matnlarda** ko‘p kuzatiladi.

Uslubiy nuqtayi nazardan inversiyada so‘zlarning bo‘yoqdorligi va ta’sirchanligi, mantiqiy urg‘uga egaligi bilan ajralib turadi. Bu yerda tasviriy va ifoda vositalarini ajratish shartli ekanligi seziladi. She’riy asarlar tilida gap bo‘laklari ifodalilik xususiyatiga ega va ular tasviriy vosita sifatida asar tilining ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Tilning belgilar tizimi sifatida amal qilishi o‘ziga semantik, sintaktik va pragmatik doiralarni qamrab oladi. Bu doiralarda tilning vazifaviy imkoniyatlari bir qator belgilar kategoriyalari, jumladan so‘z tartibida ham namoyon bo‘ladi.

So‘z tartibi va leksik birliklar aloqasi semantika doirasiga ko‘tariladi. So‘z tartibi ifodaning semantik va pragmatik xususiyatlari bilan aloqador bo‘lib, so‘zlovchining kognitiv faoliyatiga bog‘lanuvchi mantiqiy rejada namoyon bo‘ladi. Gapda so‘z tartibi til sintaktik tizimining imkoniyatlari va xususiyatlari bilangina emas, inson tafakkuri va mantiqiy idrokini aks ettiruvchi til uzusi bilan belgilanadi. She’riy asarlar tiliga oid materiallar tahlili natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, semantik tanlash tamoyili gap bo‘laklari tadrijiyligini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Sintaktik sathda semantik tanlash tamoyili so‘zlovchi gap bo‘laklarini shunday tartibda joylashtiradiki, u mantiqiy jarayon va uning kognitiv qurilishi bilan muvofiq keladi.

“Nutqiy muloqotni faoliyat va o‘ziga xos bir sistema sifatida tushunish uning tarkibiy kismlari nimalardan iborat ekanligini sharhlashni talab qiladi. Muloqotning umumiy modelida tarkibiy qismlar o‘z aksini topgan. Shunga ko‘ra ularni ikki guruhga, ya’ni tashqi va ichki guruhlarga ajratish mumkin. Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so‘zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko‘p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo‘lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi”. So‘z tartibi va ifoda pragmatikasi orasidagi bog‘liqlik, avvalo, gapning kommunikativ faollashuvida ko‘rinadi, bunda gapning aktual bo‘linishi natijasida so‘z tartibi grammatik va semantik jihatdan gapning ma’lum kommunikativ muhim turini vujudga keltiradi va bir vaqtning o‘zida qo‘shimcha kommunikativ yuk namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. So‘zlarning nutq ko‘rinishlarida joylashuvini tilshunoslikda keyingi vaqtlarda ancha ommalashgan antropotsentrizm nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblangan “lisoniy shaxs” muammolari paradigmasida qarash, u bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan holatlarni

ana shu qarashlar asosida talqin qilish so‘z tartibining badiiy matnlar, xususan, she’riy matnlarda tutgan o‘rni to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
2.Ne’matov X., Rasulov R. O‘zbek tili sistema leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
3.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 1992.
4. Safarov Sh,Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. - Samarqand, 2007.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБУЧЕНИИ ГОВОРЕНИЮ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Мирзаев Хамид Хамдамович
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета
***Хайруллаева Заринабону Хасановна** студентка 4 курса*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности применения современных цифровых ресурсов в процессе обучения диалогической и монологической речи на уроках русского языка в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения. Актуальность темы обусловлена необходимостью повышения речевой компетенции учащихся в условиях билингвальной среды. Анализируются возможности использования образовательных платформ, подкастов и диалоговых тренажёров как эффективных инструментов формирования устной речи. Отмечается значительное влияние цифровых технологий на развитие языковых навыков, повышение мотивации, создание условий для самостоятельной практики и погружения в русскоязычную речевую среду. Делается вывод о целесообразности интеграции цифровых ресурсов в образовательный процесс с целью повышения качества обучения русскому языку как неродному.*

Ключевые слова: *русский язык как неродной, устная речь, цифровые технологии, диалогическая речь, монологическая речь, подкасты, образовательные платформы, диалоговые тренажёры, билингвальное обучение, школы с узбекским языком обучения.*

Annotatsiya*: Maqolada ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarida rus tili darslarida dialogik va monologik nutqni o‘rgatish jarayonida zamonaviy raqamli resurslardan foydalanish xususiyatlari muhokama qilinadi. Mavzuning dolzarbligi talabalarning ikki tilli muhitda nutq kompetentsiyasini oshirish zarurati bilan bog‘liq. Og‘zaki nutqni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida ta’lim platformalari, podkastlar va dialog simulyatorlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, motivatsiyani oshirishga, mustaqil mashq qilish va rus tilidagi nutq muhitiga sho‘ng‘ish uchun sharoit yaratishga sezilarli ta’siri qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *rus tili ikkinchi til sifatida, og‘zaki nutq, raqamli texnologiyalar, dialogik nutq, monolog nutq, podkastlar, o‘quv platformalari, dialog simulyatorlari, ikki tilli ta’lim, ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar.*

Abstract: *The article discusses the features of the use of modern digital resources in the process of teaching dialogic and monologue speech in Russian language lessons in comprehensive schools with the Uzbek language of instruction. The relevance of the topic is due to the need to improve the speech competence of students in a bilingual environment. The possibilities of using educational platforms, podcasts and dialogue simulators as effective tools for developing oral speech are analyzed.*

Key words: *Russian as a second language, oral speech, digital technologies, dialogic speech, monologue speech, podcasts, educational platforms, dialog simulators, bilingual education, schools with Uzbek language of instruction.*

В условиях стремительной цифровизации образования особую значимость приобретает вопрос внедрения современных технологий в процесс обучения языку. Особенно это актуально для школ с узбекским языком обучения, где русский язык не является родным для большинства учащихся. Формирование навыков устной речи — как диалогической, так и монологической — требует регулярной практики, взаимодействия с речевой средой и активного погружения в языковое пространство. В этом контексте цифровые ресурсы становятся не просто вспомогательным инструментом, а полноправным участником образовательного процесса.

Современные платформы позволяют организовать обучение таким образом, чтобы ученик мог не только усваивать теоретические знания, но и применять их в реальной речевой практике. Виртуальные среды создают условия для взаимодействия с живой речью — будь то в формате видеоуроков, голосовых заданий или общения с носителями языка через цифровые приложения. Это особенно важно для учеников, которые вне школы практически не имеют возможности слышать и использовать русский язык в повседневной жизни.

Одним из эффективных направлений является использование подкастов. Аудиоформат позволяет развивать восприятие речи на слух, а также способствует формированию интонационно правильной и логически выстроенной монологической речи. Учащиеся слушают фрагменты живого русского языка, погружаются в культурный и лексический контекст, а затем пересказывают услышанное, высказывают своё мнение, учатся аргументировать и использовать новые языковые конструкции. Подкасты можно интегрировать в урок как часть аудирования или как задание для подготовки устного выступления.

Цифровые технологии предлагают и другие интересные инструменты, например, диалоговые тренажёры, которые моделируют общение с виртуальным собеседником. Эти ресурсы помогают преодолеть страх перед говорением, дают возможность многократного повторения фраз, улучшают произношение и развивают навык построения реплик в диалоге. Такой тренинг особенно полезен для интровертов и тех учеников, которым трудно сразу вступить в разговор в классе.

Дополнительным преимуществом цифровых ресурсов является возможность обучения в индивидуальном темпе. Учащийся может повторить задание столько раз, сколько нужно, без страха осуждения или неудачи. Это создает более комфортные условия для обучения, повышает мотивацию и уверенность в своих силах.

Интеграция цифровых инструментов в учебный процесс делает уроки русского языка более интерактивными, динамичными и ориентированными на результат. Ученики не просто заучивают слова и правила — они начинают использовать язык как средство общения, осмысленно и с интересом. Это особенно важно в многоязычной среде, где каждый шаг к свободному владению русским языком требует комплексной и творческой работы.

Таким образом, цифровые ресурсы становятся мощным средством поддержки и развития речевых навыков у учащихся с неродным русским языком. Они расширяют рамки классического урока, обеспечивают доступ к живому языку и помогают формировать полноценную коммуникативную компетенцию. Внедряя эти инструменты в свою практику, учитель получает возможность создать образовательную среду, где каждый ученик чувствует себя активным участником процесса обучения и уверенно движется к овладению речью на русском языке.

Список использованной литературы:
1. Быстрова, Н. В. Методика развития устной речи учащихся на уроках русского языка как неродного / Н. В. Быстрова. — М.: Просвещение, 2019. — 168 с.
2. Богин, Г. И. Теория и практика обучения русской речи / Г. И. Богин. — М.: Флинта, 2017. — 240 с.
3. Гальскова, Н. Д., Гез, Н. И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика / Н. Д. Гальскова, Н. И. Гез. — М.: Академия, 2020. — 336 с.
4. Костина, И. Г. Цифровые технологии в обучении русскому языку как иностранному // Современные проблемы науки и образования. — 2022. — № 2. — С. 115–120.
5. Лапшина, Н. А. Использование электронных образовательных ресурсов в процессе формирования коммуникативной компетенции // Образование и саморазвитие. — 2021. — Т. 16, № 3. — С. 89–94.
6. Соловова, Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс лекций / Е. Н. Соловова. — М.: АСТ, 2021. — 272 с.
7. Тюрина, И. Н. Инновационные подходы к обучению русскому языку в поликультурной среде // Вестник педагогических наук. — 2020. — № 4 (38). — С. 67–70.
8. Шахназарова, Э. А. Интеграция цифровых образовательных ресурсов в обучение говорению на русском языке // Язык и культура. — 2022. — № 1. — С. 145–150.

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НЕРОДНОГО

Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета
isamutdinovna67@gmail.com

Аннотация: *В статье рассмотрены особенности преподавания русского языка как иностранного в национальных школах, коммуникативно-речевые задачи стоящие перед преподавателем РКИ, условия необходимые для повышения эффективности и достижения поставленных целей.*

Ключевые слова: *коммуникативно-речевые задачи, лингвистические основы, взаимосвязь языков, содержание учебного материала, билингвизм, полингвизм*

Annotatsiya: *maqolada milliy maktablarda rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, rus tilini xorijiy til sifatida o‘rgatadigan o‘qituvchi oldida turgan kommunikativ va nutqiy vazifalar, samaradorlikni oshirish va maqsadga erishish uchun zarur shart-sharoitlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ va nutqiy vazifalar, lingvistik asoslar, tillarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quv materialining mazmuni, ikki tillilik, polingvizm*

Abstract: *The article examines the features of teaching Russian as a foreign language in national schools, the communicative and speech tasks facing the Russian as a foreign language teacher, and the conditions necessary to increase efficiency and achieve their goals.*

Keywords: *communicative and speech tasks, linguistic foundations, interrelation of languages, content of educational material, bilingualism, polingualism*

Коммуникативно-речевые задачи русского языка в национальной школе побуждают делать упор прежде всего на общеречевые умения. Во-первых, они являются показателем свободного владения речью и способности общаться на данном языке. Во-вторых, упражнения, вырабатывающие коммуникативные умения, несут в себе наибольший воспитательный и познавательный заряд. В-третьих, в процессе формирования коммуникативных умений всегда одновременно отрабатываются самые различные навыки: орфоэпические, грамматические, орфографические и пр.

Формирование учебной мотивации в процессе обучения РКИ без преувеличения можно назвать одной из главных проблем. Ее актуальность обусловлена обновлением содержания обучения, постановкой задач формирования у обучающихся приемов самостоятельного приобретения коммуникативных умений и навыков, а также развития активной жизненной позиции.

Общие перспективы развития содержания образования по русскому языку для национальной школы те же, что и для русской. Однако в условиях национальной школы этот учебный предмет выступает прежде всего как процесс обучения речевой деятельности.

Методика обучения русскому языку в национальной школе использует в качестве методического средства прямые параллели с родным языком учащихся. Именно родной язык раскрывает все способности человека: сознание формируется на родном языке, окружающий мир воспринимается первоначально через родной язык, и родной язык является средством выражения мысли и знаний об окружающем мире. В подготовке основы для изучения русского языка огромную роль играет первоначальное обучения на родном языке: знание родного языка облегчает и ускоряет овладение вторым языком (русским, иностранным). Вопрос о переходе на русский язык обучения должен решаться с учетом конкретных условий (наличие учительских кадров, учебников и учебных пособий, степень речевой подготовленности учащихся, желание учащихся и т.д.).

Взаимосвязь в преподавании родного и русского языков может быть реализована следующим образом. Общеязыковые знания, на фоне которых раскрываются специфические особенности каждого языка, носят в основном теоретический характер. Усвоить общетеоретический языковой материал учащимся гораздо легче на родном языке, которым они практически владеют. Существует очень простая методика, позволяющая в любом классе начать эффективное обучение детей русскому языку. В этой методике нет ничего принципиально нового: 1) не давать учащимся непосильного по объему и сложности материала; 2) добиваться полного усвоения тем на уроках всеми учащимися.

Мотивация играет важную роль в повышении эффективности обучения русскому языку в иностранной аудитории. Но для того, чтобы она появилась, необходимо подбирать подходящие методы, которые позволят оживить урок на любом этапе, а также создать новое пространство для организации проблемно-ценностного общения.

Познавательный интерес учащихся во время занятий поддерживается изучением художественных, публицистических и научно - популярных текстов, беседами, выразительным чтением, викторинами, введением в учебный процесс дополнительных языковедческих знаний. На занятиях следует попытаться обеспечить мотивацию изучения учебных тем содержанием языкового материала и разнообразием методов обучения. Чтобы увлечь учащихся следует подбирать наиболее интересный фактический материал, стараться изложить его ярче, эмоциональнее, чтобы вызвать любопытство, внимание к рассказу учителя или к рассказу товарища.

Для реализации на практике взаимосвязанного изучения родного и русского языков необходимо решить ряд вопросов:

1) Скоординировать содержание школьных программ по родному и русскому языкам, выяснив:

- какие категории и понятия, общие для родного и русского языков, должны быть усвоены учащимися за курс средней школы (в каких классах, на каких уроках - родного или русского языка);
- какие специфичные для каждого языка категории и признаки должны быть усвоены;
- в какой временной последовательности целесообразно изучать подлежащий активному усвоению языковой материал;
- какими умениями и навыками по каждому виду речевой деятельности должны овладеть учащиеся в каждом классе;

- в каком объеме целесообразно давать теоретические сведения по совпадающим темам.

2) Скоординировать содержание и структуру учебников по родному и русскому языкам, в частности согласовать такие вопросы, как:

а) содержание теоретического материала и его объем (по конкретным темам);

б) последовательность подачи и методику изложения изучаемого теоретического материала;

в) система упражнений по усвоению языковых единиц и грамматических категорий, по формированию видов речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо), по овладению функционально-смысловыми типами речи (повествование, описание, рассуждение);

г) объем, место и характер использования знаний учащихся по родному языку в учебниках русского языка (отсылки к родному языку, открытые сопоставления, переводы);

д) характер дидактического материала: связные тексты, их типы, виды заданий к ним, занимательный материал, соотношение диалогической и монологической речи, тематика текстов, их информированность, качество, образовательное и воспитательное значение и т.д.;

Учащиеся национальных школ испытывают большие затруднения в составлении связного предложения. Например,

1) не умеют связывать по смыслу простые и сложные предложения;

2) нарушают логическую связь между предложениями, что приводит к искажению высказываемой мысли;

3) не умеют правильно и уместно пользоваться средствами связи;

4) не соблюдаются паузы, логические ударения;

5) в письменной речи допускается большое количество орфографических, грамматических и пунктуационных ошибок;

7) беден и однообразен лексический состав письменной речи учащихся. Указанные ошибки и недочеты в связной речи учащихся мешают их свободному общению, затрудняют работу на уроках русского языка и литературы.

Приведем некоторые способы, которые могут помочь преподавателю РКИ мотивировать учащихся:

- Использовать наглядные материалы. Это могут быть картины, литературные и музыкальные произведения, различные предметы реальной действительности, которые помогут учащемуся освоить естественную культурную среду страны.
- Вовлекать учащихся в самостоятельную работу. Также повышению мотивации способствует проблемность заданий и ситуаций, контроль знаний, умений и навыков, страноведческий материал.
- Использовать игры. Это могут быть ролевые, сюжетные, языковые, дидактические и другие игры, которые создают возможности для развития индивидуальности каждого учащегося.
- Поддерживать доброжелательную обстановку. Это важное условие эффективности урока, которое располагает к общению и позволяет учащимся испытывать чувство успеха.
- Использовать современные технологии. Например, онлайн-платформы и интерактивные задания, которые делают процесс обучения более интересным и увлекательным.

При этом важно учитывать, что мотивация зависит от материала, который даётся в образовательном процессе, способов его подачи и реальных потребностей, интересов учащихся.

Итак, обучение русскому языку в национальной школе требует особого подхода, ориентированного на развитие коммуникативных умений, формирование устойчивой мотивации и активной познавательной деятельности учащихся. Важнейшей задачей является развитие общеязыковых умений, которые одновременно способствуют освоению

орфоэпических, грамматических, орфографических и других навыков. Мотивация обучающихся играет ключевую роль в эффективности освоения РКИ и должна поддерживаться содержанием языкового материала, его интересной подачей, применением современных технологий и разнообразных методических приёмов, включая наглядность, игровые элементы, самостоятельную работу и культурно-просветительскую составляющую.

Использованная литература:

1. Аббасова А. А., Косарева Л. А. «Формирование и повышение учебной мотивации при обучении РКИ с применением дискуссионных методов обучения» // «Глобальный научный потенциал». 2019. № 8(101). С. 20–23.
2. Богачёва А. В., Грушко К. А. «Мотивация и методы её повышения в процессе преподавания РКИ» // «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук». 2016. №4. С. 12–15.
3. Макеенкова Т. В., Сенченкова Е. В. «Развитие мотивации на занятиях по русскому языку как иностранному» // «Смоленский медицинский альманах». 2015. №2. С. 209–212.
4. Лешутина И. А., Лёвушкина А. М. «Современный подход к понятию учебной мотивации в обучении РКИ: критерии формирования» // «Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Лингвистика и педагогика». 2024. №14(2). С. 115–126.

O‘ZBEK MUMTOZ NASRIDAGI SHOH ASAR

Sayipova Dilafruz Rahimovna
SamDUKF “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Bobur shaxsi hamda “Boburnoma”ning dunyo ilmiy jamoatchiligida o‘rganilishi, asarga berilgan ta’rif-tavsiflar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, “Boburnoma”ning olamshumul shuhratiga sabab bo‘lgan omillar haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *memuar, tarixiylik, “Shayboniynoma”, “Tarixi Rashidiy”, “Humoyunnoma”, sharqshunoslik, qo‘lyozma, tarjima, fotih, badiiylik, devon, aruz, proza, ilmiy-tanqidiy matn.*

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi - ulkan xazina. Uning she’riy devoni, “Boburnoma”, “Risolai aruz”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin” hamda hozirgacha topilmagan “Musiqa ilmi”, “Harb ishi” kabi ko‘plab ilmiy va badiiy barkamol asarlari jahon adabiyoti, madaniyati va san’ati rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Albatta, bu buyuk alloma ijodining eng sara durdona asari “Boburnoma”dir. “Boburnoma” muallifi nomini abadiyatga muhrladi. Professor G‘aybulla Salomov ta’biri bilan aytganda, “...dunyoda hech bir fotih-u jahongir tillarda bunchalik doston bo‘lgan emas”.

Yevropa va Sharq olimlarining uzviy ravishda e’tiborini qozonib kelayotgan “Boburnoma” XVI asrning ikkinchi yarmidayoq forschaga o‘girilgan bo‘lsa, XIX asrga kelib uning ingliz, nemis, fransuz tillariga tarjima qilinib, chop etilishi G‘arb olimlarini hayajonga soldi: Yevropada Bobur asarlariga biror-bir tarzda murojaat etmagan yirik sharqshunos kam.

Hazrat Alisher Navoiydan keyin o‘zbek shoir va adiblaridan hech birining asarlari G‘arb va Sharqda Bobur ijodi kabi shuhrat qozonmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Misol tariqasida A.M.Midlenfordning “Farg‘ona vodiysi”, H.Mozerning “Markaziy Osiyo”, N.R.Roemerning “Temuriylar davrida davlat yozuvi”, B.Burxardning “Xonlar. Amirlar. Sultonlar” asarlarida “Boburnoma” haqida aytilgan ijobiy fikrlarni keltirish mumkin.

“Boburnoma”ning o‘ziga xos original xususiyatlari bois turli mamlakatlar olimlari unga katta qiziqish bildirganlar. Natijada XIX asrdan boshlab turli tillarga tarjima qilindi, asar haqida mulohazalar yuritilgan asarlar maydonga keldi, nashr ettirildi. Asarni o‘rganish va nashr ettirishda ingliz, nemis, fransuz, turk va boshqa xalqlar olimlarining xizmatlarini qayd etish lozim.

“Boburnoma” to‘rt marta forschada, to‘rt marta inglizchada, uch marta nemis, fransuz va turk, to‘rt marta rus, uch marta urdu, bir martadan holland, italyan, hind, ispan, qozoq, yapon, polyak va uyg‘ur tillarida chop etilgan. Boburning hayoti, shaxsi, harbiy va davlatchilik faoliyati, shajarasi: ajdod va avlodlari, Boburiylar saltanati tarixi bir necha asrdan beri dunyo sharqshunoslarining diqqatini jalb etib keladi. Bobur haqida turli tillarda risola va monografiyalar, besh yuzga yaqin ilmiy maqolalar, 30 tadan ortiq roman, esse, “Ajoyib kishilar hayotidan” turkumida kitoblar yozilgan, lug‘atlar tartib berilgan, harbiy yurishlari chizilgan xaritalar tuzilgan.

Yapon olimi Eyji Mano Bobur ijodini katta qiziqish va ishtiyoq bilan 30 yil mobaynida tadqiq qilib, “Boburnoma”ning to‘rt jilddan iborat ilmiy-tanqidiy matnini tayyorladi, asardagi atamalar, kishilar, joylar, qabilalar nomlari va boshqa ko‘rsatkichlar bilan nashr ettirdiki, bu chindan katta ilmiy voqea bo‘ldi. Eyji Mano avval “Boburnoma”ni yapon tiliga o‘girib, keyin arab alifbosida chop ettirdi. Besh yil ichida “Boburnoma”dagi uzilgan yillar voqealarini mavjud to‘rtta qo‘lyozma asosida qayta to‘ldirib, to‘rt jildli nashrini chiqardi. Asarning hozirgacha o‘n yettita qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, asar dunyoning o‘n yetti tiliga tarjima qilingani ham asarga bo‘lgan qiziqishning katta ekanidan dalolat beradi.

Turkiyalik olim doktor Bilol Yujel Boburni: “Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarlarida tariximizdan tortib to tilimizgacha bo‘lgan sohalarni to‘la qamrab olgan, turkiy tilni mumtoz holga keltirgan ulug‘ siymolardan biridir. Uning asarlari faqat chig‘atoy adabiyotininggina emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti va tilining shoh asarlaridandir”, - deb ta’riflaydi va uni o‘z zamonasining yetuk shaxsi sifatida dunyo tarixida o‘tgan buyuk allomalarning eng peshqadamlari safidan munosib joy olganligini ta’kidlaydi.

“Boburnoma” manbalarda turlicha nomlar bilan, xususan, “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya”, “Boburnoma” kabi nomlarda beriladi. Muallifning o‘zi asosan “Vaqoye’” tarzida tilga oladi. Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma” asarida ham “Vaqoye’”, “Voqeanoma” shaklida qo‘llaydi. Asarning turk tiliga tarjima qilgan va ilmiy matnini tayyorlagan olim Rashid Rahmati uni “Vaqoye’” (“Bobur xotiroti”) deb nomlaydi.

Akademik V.Zohidov asar haqida shunday yozadi: “Bobirnoma” o‘zbek adabiyoti tarixida badiiy prozaning eng birinchi buyuk namunasi ham hisoblanadi. Bu asar adabiyotimizda proza janrini rivojlantirishga uzoq vaqt ijobiy ta’sir etib keldi. “Bobirnoma” faqat o‘zbek madaniyati tarixidagina emas, balki o‘sha davrdagi boshqa ko‘p xalqlarning madaniyatlari tarixida ham favqulodda bir voqeadir”.

Bobur adabiy faoliyati o’zbek mumtoz adabiyotining boy adabiy an’analarini munosib davom ettirgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. U o’z ijodida davrning muhim qarama-qarshiliklarini aks ettirishga harakat qildi. Ayniqsa, “Boburnoma”da bu jihatlar ancha keng tasvirlangan. Asar tarixiy faktlarga asoslangan o’zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi, mukammal nasr namunasidir. Boburning ushbu asari orqali o’zbek adabiyoti yangi shakl (memuar) bilan boyidi, adabiy til sodalashdi va xalq tiliga yaqinlashi. Asarda ifodalangan voqea, hodisalarning bevosita ishtirokchisi sifatida muallif ularga xolisona yondashadi. Asar ravon uslubda Boburning tarjimayi holi, ishlari, yurishlari va zamonidagi muhim tarixiy voqealarni tavsif qiladi.

Ma’lumki, memuar xarakterida bo’lgan asar muallifning zamona va o’tmishiga aloqador xotiralarini, ko’rgan va eshitganlarini qandaydir bir shaklga soladi. Bunday turdagi asarlar bilan adabiyot o’rtasiga ba’zan qat’iy cheklovlar qo’yib bo’lmaydi. Memuar adabiyot yodgorliklarida u yoki bu darajada badiiylik elementlari kuchli bo’lishi, tarixiy vrqelikni to’g’ri berishi bilan badiiy to’qima ham qorishiq kelishi mumkin. “Boburnoma” murakkab memuarlar jumlasiga kiradi va unda muallif uzoq muddat orasida ro’y bergan tarixiy voqealarga muayyan kontseptsiya nuqtayi nazaridan qaraydi. Tasodifiy hollarni imkon qadar chiqarib tashlab, voqealarni tanlash, saralash, tipiklashtirishga katta ahamiyat beradi. Asarning ifoda kuchini oshirishga harakat qiladi, lekin asar boshidan oxirigacha o’zining memuar-tarixiylik xarakterini saqlaydi. Shu boisdan “Boburnoma” XV asrning oxiri XVI asr birinchi yarmidagi O’rta Osiyo tarixini o’rganuvchilar uchun ham

hozirgacha eng ishonchli manba bo'lib xizmat qilmoqda. V.V.Bartold, G.Vamberi, Yakubovskiy va boshqa bir qator olimlar tarixiy faktlarning aniqligini asoslash va ma'lumotlar uchun tez-tez "Boburnoma"ga murojaat qilishgan, undan iqtiboslar olishgan.

"Boburnoma"da Boburning Farg'ona viloyati hokimi bo'lib, Kobulda o'zini podshoh deb e'lon qilgani va nihoyat Hindistonda o'z saltanatiga asos solgani bilan bog'liq voqealar tizmasi o'z aksini topgan.

"Boburnoma"ni o'qish jarayonida o'quvchi voqealar ichiga tushib qoladi, o'zini yuzlab tarixiy shaxslar bilan birga his etadi; tabiat manzaralari, shaharlar, qishloqlar, tog'lar, vodiylar, me'moriy yodgorliklar, bog'lar, meva va gullarning go'zal tasviri uni maftun etadi. Asarni o'qigan kishi Movarounnahrning Andijon, Xo'jand, Samarqand shaharlari, Afg'onistonning Kobul va boshqa joylarida sayohat qilganday bo'ladi; go'yoki Bobur bu sayohat jarayonida unga yo'lboshchilik qilib borayotgandek tuyiladi. Bu esa asardagi jonli tasvirning, sodda, turkona va samimiy bayonning natijasidir. Yana shuni ham ilova qilish o'rinliki, asarda XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi hodisa-voqealar bayoni, tarixiy shaxslar tasviri o'zining rasmiyatdan xoliligi, ba'zan achchiq haqiqatning ro'yirost ifoda etilgani bilan ham kishini hayratda qoldiradi.

"Boburnoma"ning mazmuni unda tasvirlangan hodisa-voqealar shunchalik boy va ko'pqirraliki, buning natijasida u Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonning XV asr va XVI asr boshlaridagi tarixiy, madaniy, urf-odatlar, ilmi va adabiyoti, o'simliklar va hayvonot dunyosi, shahar, qishloq, meva va gullarining boy manzarasini chizuvchi nodir manbaga aylanib qoldi. Bu sohadagi ma'lumotlarning qimmatbaholigi shundan ham bilinadiki, unda tasvirlangan ko'pgina shaharlar, me'moriy yodgorliklar, bog'lar, hayvonot va o'simliklar olami hozirgi kunda tanib bo'lmas darajada o'zgargan yoki saqalanmagan. Shu jihatdan "Boburnoma" noyob ma'lumotlarga boy qomusiy asar sifatida nihoyatda qadrlanadi va o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Европа ва Россияда Шарқни ўрганиш тарихи. – Т.: Фан, 1925.
2. Билол Южел. Бобур «Девон»идаги ўғуз-турк сўзларининг ўзига хос хусусиятлари. Т.: Фан, 2008.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002.
4. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
5. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома: достон // таҳрир ҳайъати А.Қаюмов ва бошқ.; Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Э.Шодиев. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
6. Evliya Çelebi. Evliya Çelebi Seyahatnamesi. O.Ş.Gökyay (ed.). – Istanbul, 1996.
7. Ҳасан Бег. Бобурнинг адабий мероси. Тошкент: Фан, 2008.

ПРИМЕНЕНИЕ УЧЕБНЫХ КЕЙСОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ КАК ИНОСТРАННОМУ (РКИ)

Акрамова Насиба Хамитовна
Преподаватель русского языка и литературы КФ САМГУ
n.x.akramova@mail.ru

Аннотация: *В данной работе исследуется применение учебных кейсов в обучении русскому языку как иностранному (РКИ) как эффективного метода, способствующего усвоению языка и развитию коммуникативных навыков. Учебный кейс представляет собой описание реальной или гипотетической ситуации, с которой студенты могут столкнуться в своей деятельности. Применение кейсов на различных этапах обучения обогащает процесс, развивает критическое мышление и навыки работы в команде, подготавливая студентов к реальным профессиональным вызовам.*

Annotatsiya*: Ushbu ishda rus tilini xorijiy til sifatida o'rganishda (RKI) o'quv keyslarini qo'llashning samarali usuli sifatida ko'rib chiqiladi. O'quv keyslar, haqiqiy yoki gipotezaviy vaziyatlarni tasvirlab, talabalarning nutqiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan holatlarni aks*

ettiradi. O‘quv keyslarini ta’limning turli bosqichlarida qo‘llash jarayoni, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib, talabalarning professional jihatdan tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bu metod tilni o‘zlashtirish va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *o‘quv keyslari, rus tili, ikkinchi tilni o‘rganish usullari, muloqot qilishni o‘rganish, o‘quv interaktivligi.*

Ключевые слова: *учебные кейсы, русский язык, методы обучения второму языку, обучение общению, обучающая интерактивность.*

Annotation: *This work explores the use of educational cases in teaching Russian as a foreign language (RFL) as an effective method that facilitates language acquisition and the development of communicative skills. An educational case represents a description of a real or hypothetical situation that students may encounter in their activities. The application of cases at various stages of learning enriches the process, develops critical thinking and teamwork skills, and prepares students for real professional challenges.*

Keywords: *educational cases, Russian language, methods of learning a second language, communication training, educational interactivity.*

Одной из главных задач модернизации высшего образования является повышение качества иноязычной подготовки студентов, их ориентация на использование иностранного языка в профессиональных целях для более глубокого освоения специальности.

Обучение русскому языку как иностранному представляет собой сложный и многогранный процесс, требующий применения разнообразных методов и подходов. В последние годы учебные кейсы становятся все более популярными среди преподавателей, поскольку они способствуют активному вовлечению студентов в процесс обучения и позволяют развивать навыки, необходимые для успешного общения на языке.

Учебный кейс — это структурированное описание реальной или гипотетической ситуации, с которой студенты могут столкнуться в своей профессиональной деятельности. Он представляет собой комплексный инструмент, который включает в себя не только текстовую информацию, но и различные элементы, такие как данные, графики, диаграммы и дополнительные материалы, которые помогают глубже понять контекст ситуации.

Основная цель учебного кейса — создать условия для активного участия студентов в процессе обучения, позволяя им анализировать, обсуждать и принимать решения на основе предоставленной информации.

Кейс-метод, как метод обучения, был впервые разработан в начале XX века в бизнес-школах, таких как Гарвардская школа бизнеса, и с тех пор получил широкое распространение в образовательной практике. Этот метод позволяет студентам не просто усваивать теоретические знания, но и применять их в реальных ситуациях, что делает процесс обучения более осмысленным и целенаправленным.

Учебный кейс обычно включает несколько ключевых компонентов, которые помогают создать полное представление о рассматриваемой ситуации.

Первым компонентом является контекст, который описывает ситуацию, в которой происходит действие. Здесь представлена информация о задействованных персонажах, организации или рынке. Это позволяет студентам лучше понять фон и специфику проблемы, с которой они сталкиваются.

Следующим элементом является проблема. Это основная задача или вопрос, который необходимо решить. Проблема может быть связана с управлением, этическими dilemmas или требовать анализа данных. Четкое определение проблемы помогает сосредоточиться на главном и направляет студентов в процессе поиска решений.

Третий компонент — данные. Это информация, необходимая для анализа ситуации. Данные могут быть как количественными, например, статистика и финансовые показатели, так и качественными, такими как отзывы клиентов и мнения экспертов. Наличие

разнообразных данных помогает студентам принимать обоснованные решения и формировать свои аргументы.

Наконец, задания представляют собой конкретные вопросы или задачи, которые студенты должны решить. Эти задания могут включать разработку стратегий, анализ рисков, оценку альтернатив и принятие решений. Четко сформулированные задания направляют студентов и помогают им структурировать свою работу, что способствует более глубокому пониманию темы.

Таким образом, структура учебного кейса, состоящая из контекста, проблемы, данных и заданий, создает основу для эффективного анализа и решения практических задач.

При разработке учебного кейса необходимо учитывать несколько важных аспектов.

Во-первых, кейс должен быть связан с реальными проблемами и ситуациями, с которыми студенты могут столкнуться в своей будущей профессиональной жизни. Это позволяет им увидеть практическое применение теоретических знаний и повысить интерес к изучаемому материалу.

Во-вторых, важно, чтобы кейс предлагал различные варианты решения проблемы. Это не только обогащает процесс обучения, но и способствует развитию критического мышления у студентов. Они учатся анализировать различные подходы, взвешивать плюсы и минусы каждого из них, а также формулировать аргументированные выводы.

Кроме того, учебный кейс должен быть интерактивным. Это значит, что он должен побуждать студентов активно обсуждать и взаимодействовать друг с другом. Такой подход помогает развивать навыки командной работы и коммуникации, что является важным аспектом профессиональной деятельности. Студенты учатся слушать мнения других, учитывать разные точки зрения и работать над общими решениями.

Таким образом, при создании учебного кейса необходимо помнить о его связи с реальностью, многообразии возможных решений и интерактивности, что в конечном итоге делает процесс обучения более эффективным и увлекательным.

Применение учебных кейсов в обучении русскому как иностранному (РКИ) представляют собой эффективный метод обучения, который может значительно улучшить процесс изучения. Они позволяют учащимся не только усваивать грамматические правила и лексику, но и применять их в реальных жизненных ситуациях. Использование кейсов на различных этапах образовательного процесса помогает создать интерес к языку и углубить понимание культурных аспектов, связанных с русским языком.

На вводном этапе учебные кейсы могут быть использованы для знакомства студентов с новой темой и создания интереса к предмету. Например, при изучении темы "Путешествия" преподаватель может представить кейс о путешествии иностранца в Россию. Студенты могут изучить, какие места он посетил, какие фразы ему понадобились, и какие культурные различия он заметил. Это позволит учащимся не только расширить свой словарный запас, но и понять контекст использования языка.

Пример кейса: Студенты получают описание путешествия иностранца в Санкт-Петербург. В кейсе рассказывается о том, как он планировал свою поездку, какие достопримечательности посетил, и какие трудности возникли при общении с местными жителями. Студенты обсуждают, какие фразы и выражения могли бы помочь герою кейса, а также делятся своими впечатлениями о посещенных местах.

На основном этапе учебные кейсы помогают углубить изучение материала и применить теоретические знания на практике. Например, при изучении темы "Работа и карьера" студенты могут получить кейс о трудоустройстве иностранца в российскую компанию. Они могут обсудить, какие документы необходимы для работы, какие вопросы могут задать на собеседовании и как правильно составить резюме на русском языке.

Пример кейса: Студенты работают с кейсом о молодом специалисте, который хочет устроиться на работу в российскую IT-компанию. В кейсе описываются этапы его подготовки к собеседованию, включая составление резюме, подготовку к вопросам и изучение корпоративной культуры. Студенты обсуждают, какие слова и выражения будут уместны в резюме и на собеседовании, а также разыгрывают сценки собеседования.

На заключительном этапе учебные кейсы помогают обобщить и закрепить знания, а также оценить понимание темы. Преподаватель может использовать кейсы для проверки усвоения материала, задавая вопросы, требующие глубокого анализа.

Пример кейса: Студенты анализируют кейс о том, как семья в России готовится к Новому году: какие блюда готовят, какие традиции соблюдают и как отмечают праздник. Затем они сравнивают это с тем, как Новый год празднуется в их странах. Студенты представляют свои выводы и делятся своими культурными традициями, что помогает закрепить изученный материал и развить навыки общения.

Применение учебных кейсов на разных этапах обучения РКИ значительно обогащает образовательный процесс, способствует активному вовлечению студентов и помогает им развивать навыки, необходимые для успешного общения на русском языке. Учебные кейсы не только закрепляют теоретические знания, но и формируют практические навыки, полезные в реальных жизненных ситуациях.

В результате применения кейс-метода студенты осваивают теоретические концепции и развивают такие практические навыки, как аналитическое мышление, принятие решений и командная работа. Это делает учебный процесс более динамичным и эффективным, готовя студентов к реальным вызовам в их профессиональной жизни.

Таким образом, учебный кейс является мощным инструментом для преподавателей, позволяющим интегрировать теорию и практику, а также развивать ключевые компетенции, необходимые для успешной карьеры в различных областях.

Использованная литература:

1. Барабанова, И. А. (2018). Метод кейсов в обучении иностранным языкам. Москва: Издательство "Наука".
2. Сидорова, Н. В. (2020). Интерактивные методы обучения в вузе. Санкт-Петербург: Издательство "Питер".
3. Тихомирова, Е. А. (2021). Развитие коммуникативных навыков у студентов в процессе изучения русского языка как иностранного. Казань: Издательство "Казанский университет".

O‘ZBEK TILI TOVUSHLAR TIZIMINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *maqolada o‘zbek tilida unli tovushlar tizimining taraqqiyot yo‘li, tarixi, mavjud muammolar, unli tovushlarning darslik va qo‘llanmalarda berilishi, ayrim unli tovushlarning nazariy va amaliy jihatdan nomutanosibligi, talaffuzni o‘rgatish bilan bog‘liq qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon qilingan.*

Аннотация: *в статье описано пути развития узбекской системы гласных, ее история, существующие проблемы, изложение гласных в учебниках и пособиях, теоретическая и практическая несбалансированность некоторых гласных звуков, трудности связанные с обучением произношения и их устранения, представлены предложения.*

Annotation: *The language of the system of development, history, textbooks and textbooks of existing sounds, the theoretical and practical disproportionate, to eliminate them are described in the article.*

Kalit so‘z va iboralar: *unli tovush, tovushlar tizimi, talaffuz, adabiy til va adabiy talaffuz, talaffuzi qiyin unlilar.*

Ключевые слова и фразы*: гласный звук, звуковая система, произношение, литературный язык и литературное произношение, труднопроизносимые гласные.*

Keywords and phrases: *a vowel system, pronounciation, literary language and literary pronunciation, difficult pronounced vowels.*

Turkiy tillarning unli tovushlar tizimi asrlar davomida tadrijiy yo‘llar bilan rivojlangan. Jumladan, o‘zbek tilida unli tovushlarning taraqqiyoti diaxronik jihatdan umumturkiy xususiyat kasb etgan, sinxronik tomondan esa ba’zi bir ayrimliklarga ega. Qadimgi va eski turkiy, eski o‘zbek hamda hozirgi o‘zbek adabiy tillari tarixida ba’zi unli va undosh tovushlarda yuz bergan ayrim fonetik jarayonlar ustida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbek tili orqa qator ochiq keng ***o/ ã /*** unlisining paydo bo‘lishi tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi, eski turkiy til davrida ***o/ ã /*** unlisi mustaqil tovush tarzida mavjud bo‘lmagan, shuningdek, bu tovushning paydo bo‘lishi uchun ba’zi turkiy so‘zlarda zamin bor edi.

Toli Imoniy Hiraviyning ma’lumotiga ko‘ra, eski o‘zbek tilida turkiy so‘zlarda etimologik cho‘ziq ***a:*** hamda orqa qator keng *a* tovushlari saqlanganligi ma’lum bo‘lgan. Arab tiliga xos bo‘lgan ***a:лым*** [1.ҲҲ, 242], ***a:хир*** [1.ҲҲ, 249], ***байа:н*** [2.Таф, 68], ***улама:*** [2.Таф, 9] kabi so‘zlarda qo‘llangan cho‘ziq *a:* tovushi turkiy etimologik cho‘ziq ***a:*** unlisiga yaqin talaffuz qilinadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida analogiya hodisasiga ko‘ra, orqa qator lablanmagan ochiq keng ***o/a/*** fonemasiga aylandi.

Turkiy yozma manbalarda old qator to‘liqsiz ***э,*** old qator o‘rta keng ***э`*** hamda old qator tor ***и*** tovushlari tarixiy dialektal hodisa tarzida rivojlangan. Shuningdek, harfiy jihatdan to‘la bo‘lmasa ham, yozuv shakllari orqali ifodalangan ***э// и// э`// э*** fonetik hodisasi yuz bergan. O‘rxun-Enasoy yozma manbalarida ***er*** [3.To‘n, 25] –*kishi, botir;* ***йэгирми*** [4.KT, II] – *yigirma* kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida old qator ***э`*** unlisi qo‘llangan.

Ba’zi undosh tovushlar ham qadimgi va eski turkiy hamda eski o‘zbek tili davrlariga oid yozma manbalarda turli fonetik hodisalarga uchrab, tadrijiy yo‘l bilan rivojlanib, hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelgan. Qadimgi turkiy til davriga xos ***д*** undoshi so‘zlarning o‘rtasida, oxirida fonetik hodisalarga uchrab, eski turkiy til davriga kelib jarangli sirg‘aluvchi-portlovchi ***з`*** tovushiga o‘tdi, ***з`*** tovushi eski turkiy til davri uchun yangi ***з*** tovush, bu tovush bir qator turkiy tillarda qo‘llanildi va XI-XIV asrlar uchun asosiy ahamiyatga ega tovushga aylandi. Shuningdek, ba’zi turkiy so‘zlarda *д* tovushi saqlandi, yana bir guruh turkiy so‘zlarda fonetik zaruratga ko‘ra, sirg‘aluvchi sonor ***й*** tovushiga o‘tdi yoki ***д - з`- з - й*** fonetik hodisasi yuz berganligini guvohi bo‘lamiz. Yana bir guruh turkiy so‘zlarda ***з`*** tovushi jarangli sirg‘aluvchi oddiy ***з*** undoshiga o‘tgan: ***д - з`- з*** undoshlarining tadrijiy rivojlanganligi yuz berdi: ***қод*** [3.To‘n, 2]; ***қоз`*** [2.Taf, 80], ***қоз*** [5.МК, III, 444], ***қой (fe’l), адақ*** [4. KT, 47] kabi shaklida shakllandi.

Hozirgi qardosh turkiy xalqlarda ***д - з`- з - й*** fonetik hodisasi sinxronik holat kasb etib, ***р, т, з, й*** undoshlari tarzida iste’mol qilinmoqda: ***hur, qos, qoy-qo‘y; taran, tot, toz, tos-to‘ytmoq; azaq, azak, ayaq-ayoq*** kabi.

Qadimgi turkiy til davridan so‘ng X-XIV asrlardagi turkiy yozma obidalarda ***б, г, г*** undoshlarining fonetik o‘zgarishga uchrashi orqali bir guruh so‘zlarning o‘rtasida, oxirida jarangli sirga‘luvchi lab-tish *w* tovushi paydo bo‘lgan, bu tovush arab yozuviga xos bir va **uch nuqtali fe** orqali ifodalangan, ***б - w - в - й; г- w - в - й; г - w - в – й*** kabi fonetik jarayonlar yuz bergan: ***а`б*** [3.Тўн, 30]; ***э`w*** [7.ҚБН, 162]; ***эв*** [12.Ш.Тар. 19]; ***-уй; йалғады*** [5.МК, 321]; ***йалwади*** [5.МК, 1, 321]; ***йалвады - лади; согул*** [2.Таф, 98 б]; ***сойул*** [2.Таф, 45 б] ***тўсил*** kabilarni ko‘rish mumkin. Shuningdek, ***w*** tovushi eski o‘zbek tili yozma manbalarida lab-lab ***в*** undoshi bilan qo‘shilib ketdi yoki sosnor ***й*** tovushiga aylandi, ***э`w*** [14. НФ, 360] – ***эв*** [12.Ш.Тар. 19] –uy, hozirgi o‘zbek tilida ham bu fonetik jarayon ***уоп, уоvuz, иу*** kabi so‘zlarda uchraydi.

Turkiy tillar tarixida burun tovushi sonor ***н*** undoshi singormanizm qonuniga ko‘ra, so‘zlarning qalin yoki ingichka talaffuziga muvofiq, til orqa qator hamda til oldi qator xususiyatiga

ega bo‘lgan. Bundan tashqari, sonor ***н*** undoshi ***мэниз, кэнру, кенул, бэрин, ишлан*** kabi misollarda ingichka talaffuzili mustaqil fonema hisoblansa, ***қо н уз*** [5.МК, III, 375], ***қалин*** [5.МК, III, 382], ***тан*** [5.МК, III, 367] kabi turkiy so‘zlarda sonor ***н*** undoshi qalin aytiluvchi mustaqil fonema vazifasini bajarganligini guvohi bo‘lamiz.

Abstract. *This article presents a novel method for calculating deformation tensor invariants, which are expressed through the spherical and spherical component invariants. The research builds upon foundational theories in elasticity and continuum mechanics, incorporating concepts from well-established works by Timoshenko, Malvern, and Love, who have contributed significantly to the understanding of strain and stress tensors. The proposed approach offers new insights into the application of deformation tensors in practical fields such as material science and geophysics. By employing these methods, the study aims to address gaps in the existing literature and provide more efficient solutions for analyzing complex deformation patterns in various engineering and scientific problems.*

Key words: *Principal strains, invariants of strain tensor, spherical part of strain tensor, deviatoric part of strain tensor, directon cosines, permutation matrix, coefficient of volume expansion.*

Methodology. The strain tensor is a second-rang symmetric tensor whose principal values are equal to the roots of the following cubic equation:

$$\varepsilon^3 - I_1(\varepsilon_{ij})\varepsilon^2 + I_2(\varepsilon_{ij})\varepsilon - I_3(\varepsilon_{ij}) = 0 \qquad (1)$$

Moreover, this equation is a known as "Centurial equation". Here $I_1(\varepsilon_{ij})$, $I_2(\varepsilon_{ij})$ and $I_3(\varepsilon_{ij})$ are the 1st, 2nd and 3rd invariants of the strain tensor (ε_{ij}). We can find these invariants by the following expressions, using the components of the strain tensor:

$$I_1(\varepsilon_{ij}) = \varepsilon_{ij}\delta_{ij} = \varepsilon_{ii}$$
$$I_2(\varepsilon_{ij}) = \frac{1}{2}\left(\varepsilon_{ii}\varepsilon_{jj} - \varepsilon_{ij}\varepsilon_{ji}\right) \qquad (2)$$
$$I_3(\varepsilon_{ij}) = det(\varepsilon_{ij})$$

Here δ_{ij} is the kronecker symbol. Kronecker symbol is as follows:

$$\delta_{ij} = \begin{cases} 1, & if \quad i = j \\ 0, & if \quad i \neq j \end{cases}$$

Moreover, it can also be called the unit matrix component. Thus, we can write it in matrix form as follows:

$$\delta_{ij} = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

If we put the numbers 1, 2, 3 instead of i and j in the expressions (2), we get the following expressions for invariants of strain tensor:

$$\begin{gathered} I_1(\varepsilon_{ij}) = \varepsilon_{11} + \varepsilon_{22} + \varepsilon_{33} \\ I_2(\varepsilon_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_{11} & \varepsilon_{12} \\ \varepsilon_{21} & \varepsilon_{22} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_{11} & \varepsilon_{13} \\ \varepsilon_{31} & \varepsilon_{33} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_{22} & \varepsilon_{23} \\ \varepsilon_{32} & \varepsilon_{33} \end{vmatrix} \\ I_3(\varepsilon_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_{11} & \varepsilon_{12} & \varepsilon_{13} \\ \varepsilon_{21} & \varepsilon_{22} & \varepsilon_{23} \\ \varepsilon_{31} & \varepsilon_{32} & \varepsilon_{33} \end{vmatrix} \end{gathered} \tag{3}$$

Principal values of the strain tensor are called principal strains and denoted by ε_i (i=1, 2, 3). We have to denote these principal values as follows:

$$\varepsilon_1 > \varepsilon_2 > \varepsilon_3$$

We denote by n_j the components of the $\vec{n}$ unit vectors of the principal axes of the strain tensor. Also, we can find them from the following expressions:

$$\begin{cases} (\varepsilon_{ij} - \varepsilon\delta_{ij})n_j = 0 \\ n_j n_j = 1 \end{cases} \tag{4}$$

If we put the numbers 1, 2, 3 to i and j to the above expressions, we get the following expressions:

$$\begin{cases} (\varepsilon_{11} - \varepsilon)n_1 + \varepsilon_{12}n_2 + \varepsilon_{13}n_3 = 0 \\ \varepsilon_{21}n_1 + (\varepsilon_{22} - \varepsilon)n_2 + \varepsilon_{23}n_3 = 0 \\ \varepsilon_{31}n_1 + \varepsilon_{32}n_2 + (\varepsilon_{33} - \varepsilon)n_3 = 0 \\ n_1^2 + n_2^2 + n_3^2 = 1 \end{cases} \tag{5}$$

Here, n_1, n_2, n_3 are direction cosines. We know that the permutation matrix has 9 components. If we put the first principal strain in the expression (5), we find the first row elements of permutation matrix. Also, through second and third principal strain we can find second and third row elements of permutation matrix. The permutation matrix is as follows:

$$(n_{ij}) = \begin{pmatrix} n_{11} & n_{12} & n_{13} \\ n_{21} & n_{22} & n_{23} \\ n_{31} & n_{32} & n_{33} \end{pmatrix}$$

Here, n_{1j} is the component of permutation matrix, which found by using first principal strain. n_{2j} and n_{3j} are the component of permutation matrix, which found by using second and third principal strains. If we direct the coordinate axes along the principal axes of the strain, we get the following expressions:

$$\varepsilon_{ii} = \varepsilon_i \quad ; \quad \varepsilon_{ij} = 0 \quad (i \neq j)$$

In this case, (2) expressions have the following form:

$$\begin{gathered} I_1(\varepsilon_{ij}) = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3 \\ I_2(\varepsilon_{ij}) = \varepsilon_1\varepsilon_2 + \varepsilon_1\varepsilon_3 + \varepsilon_2\varepsilon_3 \\ I_3(\varepsilon_{ij}) = \varepsilon_1\varepsilon_2\varepsilon_3 \end{gathered} \tag{6}$$

The strain tensor divided into two parts. We can see this in the following expression:

$$(\varepsilon_{ij}) = (\varepsilon_0\delta_{ij}) + (\tilde{\varepsilon}_{ij}) \tag{7}$$

Here $(\varepsilon_0\delta_{ij})$ is the spherical part of the strain tensor, $(\tilde{\varepsilon}_{ij})$ is the deviatoric part of the strain tensor. Their tensor representation is as follows:

$$(\varepsilon_0\delta_{ij}) = \begin{pmatrix} \varepsilon_0 & 0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & 0 & \varepsilon_0 \end{pmatrix} \;\; ; \;\; (\tilde{\varepsilon}_{ij}) = \begin{pmatrix} \varepsilon_{11} - \varepsilon_0 & \varepsilon_{12} & \varepsilon_{13} \\ \varepsilon_{21} & \varepsilon_{22} - \varepsilon_0 & \varepsilon_{23} \\ \varepsilon_{31} & \varepsilon_{32} & \varepsilon_{33} - \varepsilon_0 \end{pmatrix}$$

Here ε_0 is determined by the following expression:

$$\varepsilon_0 = \frac{\varepsilon_{11} + \varepsilon_{22} + \varepsilon_{33}}{3} \tag{8}$$

The invariants of the spherical part of the strain tensor are found as follows:

$$I_1(\varepsilon_0\delta_{ij}) = \varepsilon_0 + \varepsilon_0 + \varepsilon_0 = 3\varepsilon_0$$

$$I_2(\varepsilon_0\delta_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_0 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_0 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_0 \end{vmatrix} = 3\varepsilon_0^2 \tag{9}$$

$$I_3(\varepsilon_0\delta_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_0 & 0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & 0 & \varepsilon_0 \end{vmatrix} = \varepsilon_0^3$$

We have the expressions (6) of the invariants of the strain tensor for the case where the coordinate axes is directed along the principal axes of the strain. We find the invariants of the deviatoric part of the strain tensor by using expressions (6). In turn 1, we write down the deviatoric part of the strain tensor for the case when the coordinate axes are directed along the principal axes:

$$(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = \begin{pmatrix} \varepsilon_1 - \varepsilon_0 & 0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_2 - \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & 0 & \varepsilon_3 - \varepsilon_0 \end{pmatrix}$$

And now, we can find the invariants of this tensor using the following expressions:

$$I_1(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = (\varepsilon_1 - \varepsilon_0) + (\varepsilon_2 - \varepsilon_0) + (\varepsilon_3 - \varepsilon_0)$$

$$I_2(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_1 - \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_2 - \varepsilon_0 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_1 - \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_3 - \varepsilon_0 \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} \varepsilon_2 - \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_3 - \varepsilon_0 \end{vmatrix}$$

$$I_3(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = \begin{vmatrix} \varepsilon_1 - \varepsilon_0 & 0 & 0 \\ 0 & \varepsilon_2 - \varepsilon_0 & 0 \\ 0 & 0 & \varepsilon_3 - \varepsilon_0 \end{vmatrix}$$

If we calculate the above expressions, we get the following expressions for invariants of deviatoric part of strain tensor:

$$I_1(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3 - 3\varepsilon_0 = 0$$

$$I_2(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = (\varepsilon_1 - \varepsilon_0)(\varepsilon_2 - \varepsilon_0) + (\varepsilon_1 - \varepsilon_0)(\varepsilon_3 - \varepsilon_0) + (\varepsilon_2 - \varepsilon_0)(\varepsilon_3 - \varepsilon_0) =$$
$$= \varepsilon_1\varepsilon_2 + \varepsilon_1\varepsilon_3 + \varepsilon_2\varepsilon_3 - \varepsilon_0(\varepsilon_1 + \varepsilon_2) - \varepsilon_0(\varepsilon_1 + \varepsilon_3) - \varepsilon_0(\varepsilon_2 + \varepsilon_3) + 3\varepsilon_0^2 =$$
$$= \varepsilon_1\varepsilon_2 + \varepsilon_1\varepsilon_3 + \varepsilon_2\varepsilon_3 - 2\varepsilon_0(\varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3) + 3\varepsilon_0^2$$

$$I_3(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = (\varepsilon_1 - \varepsilon_0)(\varepsilon_2 - \varepsilon_0)(\varepsilon_3 - \varepsilon_0) = \varepsilon_1\varepsilon_2\varepsilon_3 - \varepsilon_0(\varepsilon_1\varepsilon_2 + \varepsilon_1\varepsilon_3 + \varepsilon_2\varepsilon_3) +$$
$$+\varepsilon_0^2(\varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \varepsilon_3) - \varepsilon_0^3$$

Solution. Thus, we can determine the invariants of deviatoric part of the strain tensor through the invariants of the strain tensor as follows, only when the coordinate axes are directed along the principal axes of the strain tensor:

$$I_1(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = 0$$

$$I_2(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = I_2(\varepsilon_{ij}) - \frac{I_1^2(\varepsilon_{ij})}{3} \tag{10}$$

$$I_3(\tilde{\varepsilon}_{ij}) = I_3(\varepsilon_{ij}) - \frac{I_1(\varepsilon_{ij}) \cdot I_2(\varepsilon_{ij})}{3} + \frac{2 \cdot I_1^3(\varepsilon_{ij})}{27}$$

Conclusion. In this study, we explored the invariants of the deviatoric strain tensor in terms of strain tensor invariants. The findings contribute to a deeper understanding of strain representation in continuum mechanics, offering a refined approach to analyzing deformation characteristics. These results are particularly useful in fields such as elasticity theory, material science, and structural engineering, where precise deformation analysis is crucial. Additionally, the derived expressions bear a mathematical resemblance to certain aspects of the Cardano method

for solving cubic equations, hinting at potential applications in computational mechanics and algebraic approaches to strain analysis. Future research may focus on leveraging these invariants for more efficient numerical simulations and advanced material behavior modeling.

REFERENCES

1. Timoshenko, S. P. & Goodier, J. N. (1970). *Theory of Elasticity*. McGraw-Hill.

2. Malvern, L.E. (1969). *Introduction to the Mechanics of a Continuous Medium*. Prentice-Hall.

3. Love, A.E.H. (1927). *A Treatise on the Mathematical Theory of Elasticity*. Cambridge University Press.

4. Truesdell, C. & Noll, W. (2004). *The Non-Linear Field Theories of Mechanics*. Springer.

5. Mase, G.E. & Mase, G.T. (1999). *Continuum Mechanics for Engineers*. CRC Press.

6. Spencer, A.J.M. (1980). *Continuum Mechanics*. Dover Publications.

7. Rivlin, R.S. (1948). *Large Elastic Deformations of Isotropic Materials*. Philosophical Transactions of the Royal Society A.

8. Batdorf, S.B. & Budiansky, B. (1949). *A Mathematical Theory of Plasticity Based on Strain Invariants*. Journal of the Aeronautical Sciences.

SINGULYAR SIRTLAR BILAN BOG‘LANGAN MAKSIMAL OPERATORLAR HAQIDA

Usmanov Salim Eshimovich[1]

[1]*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti*

Po‘latov Baxtiyor Sobirovich,[2] *Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li*[3]

[2]*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali*

otabekfarxodovichturdimurodov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ishda uch o‘lchovli Evklid fazosida parametrik tenglamalar orqali berilgan singulyar sirtlar bilan bog‘langan maksimal operatorlarning jamlanuvchi funksiyalar fazosida chegaralanganligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: gipersirt, maksimal operator, o‘rtalashtirish operatori, singulyar sirt, regulyar nuqta, kasr-darajali qator.

Kirish

Gipersirtlar bilan bog’langan maksimal operator quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathcal{M}f(y) \coloneqq \sup_{t>0}|A_t f(y)|, \tag{1}$$

bu yerda

$$A_t f(y) \coloneqq \int_S f(y - tx)\psi(x)dS(x) \tag{2}$$

o‘rtalashtirish operatori deb ataladi. $S \subset \mathbb{R}^{n+1}$ – gipersirt, ψ - kompakt tashuvchiga ega cheksiz marta differensiallanuvchi silliq nomanfiy funksiya, ya’ni $\psi \in C_0^\infty(\mathbb{R}^{n+1})$, $t > 0$ va $f \in C_0^\infty(\mathbb{R}^{n+1})$, $dS(x) - S$ dagi sirt o‘lchovidir.

Agar $|f(x)|^p$ funksiya $\mathbb{R}^{n+1}$ fazoda integrallannuvchi bo’lsa, u holda $\mathbb{R}^{n+1}$ da aniqlangan f o‘lchovli funksiyalar to‘plamini $L^p \coloneqq L^p(\mathbb{R}^{n+1})$ deb belgilaymiz.

Agar shunday musbat $C > 0$ soni mavjud bo‘lib, har qanday $f \in C_0^\infty(\mathbb{R}^{n+1})$ uchun $\|\mathcal{M}f\|_{L^p} \le C_p\|f\|_{L^p}$ tengsizlik (baho) bajarilsa, u holda $\mathcal{M}f$ maksimal operator L^p da chegaralangan deyiladi.

Berilgan S gipersirt va berilgan $0 \le \psi \in C_0^\infty(\mathbb{R}^{n+1})$ funksiya uchun mos keladigan maksimal operatorning chegaralanganlik ko‘rsatkichi tabiiy ravishda ushbu munosabat bilan aniqlanadi:

$$p(S) \coloneqq p_\psi(S) \coloneqq inf\{p: (1)\ operator\ L^P\ da\ chegaralangan\}.$$

Gipersirtlar bilan bog‘liq maksimal operatorlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Birinchi marta 1976-yilda E.M.Stein isbotladiki, agar gipersirt birlik sfera bo‘lsa, unga mos

keladigan maksimal operator $p > \frac{n+1}{n}$ uchun $L^p(\mathbb{R}^{n+1})$ fazoda chegaralangan, $1 \le p \le \frac{n+1}{n}$ uchun esa chegaralanmagan [1]. Keyinchalik E.M.Steinning isbotlash usullari qo‘llanilmaydigan tekis holat uchun E.M.Stein teoremasining analogi J.Burgen tomonidan isbotlangan [2].

A.Greenleaf [3] isbotladiki, agar gipersirt $\mathbb{R}^{n+1}(n \ge 2)$ da kelib chiqishiga nisbatan qat’iy qavariq va yulduzsimon bo‘lsa (demak, koordinatadan chiqadigan har qanday nur gipersirtni bir nuqtada kesib o‘tadi va gipersirtning Gauss egriligi musbat), u holda E.M.Stein teoremasining tasdiqlari to‘g‘ri bo‘ladi. Bundan tashqari u ko‘rsatganidek agar gipersirtning har bir nuqtasida kamida $k(k \ge 2)$ nolga teng bo‘lmagan asosiy egriliklar mavjud bo’lsa, $p > \frac{k+1}{k}$ uchun maksimal operator L^p da chegaralangan. Murakkabroq holatda $k = 1$ integral operatorlarning lokal silliqligidan foydalangan holda, xuddi Shunday natijani C.D.Sogge [4] olgan. Xususan, C.D.Sogge J.Burgen teoremasining yangi isbotini taqdim etdi.

Shuningdek, (1) maksimal operatorlarning chegaralanganligi M.Cowling, G.Mauceri, A.Nagel, A.Seeger and S.Wainger, A.Iosevich, E.Sawyer , M.Greenblatt ishlarida ham tadqiq qilingan [5]- [8].

I.A.Ikromov, M.Kempe va D.Müller lar $p > h$ [9]-[10] holatda bir jinsli gipersirtlar bilan bog‘langan maksimal operatorlarning chegaralanganligini isbotladilar.

Undan tashqari, yoyiluvchan va singulyar sirtlar bilan bog‘langan maksimal operatorlarning chegaralanganlik masalasi I.A.Ikromov va S.Usmanovlarning [11]-[12] ishlarida ham o‘rganilgan.

1-Ta’rif. $V \subseteq R_+^n$ ochiq bog‘langan to’lpam bo’lsin, bunda $0 \in \bar{V}$, $w \subseteq \mathbb{R}^n$ ochiq to’plam bo‘lsa, f ga V to‘plamda kasr darajali qator deyiladi. $\bar{V}$ yopiq to‘plam, N natural son va g haqiqiy analitik funksiya $\Phi_N^{-1}(W)$ to‘plamdan olingan. V to‘plamda $\Phi_N = g \cdot \Phi_{1/N}$, bu yerda $\Phi_N: \mathbb{R}^n \to \mathbb{R}^n$ akslantirish. $\Phi_N(x) = (x_1^N, x_2^N, \dots, x_n^N)$ formula bilan berilgan [12].

Ushbu ishda quyidagi parametrik tenglamalar bilan berilgan $\mathbb{R}^3$ fazodagi sirtlarni qaraymiz:

$$\begin{aligned} x_1(u_1,u_2) &= r_1 + u_1^{a_1}u_2^{a_2}g_1(u_1,u_2) \\ x_2(u_1,u_2) &= r_2 + u_1^{b_1}u_2^{b_2}g_2(u_1,u_2) \\ x_3(u_1,u_2) &= r_3 + u_1^{c_1}u_2^{c_2}g_3(u_1,u_2) \end{aligned} \qquad (3)$$

Bu yerda r_1, r_2, r_3 - ixtiyoriy kamida bittasi nol bo’lmagan haqiqiy sonlar va $a_1, a_2, b_1, b_2, c_1, c_2$ lar manfiy bo‘lmagan ratsional sonlar, $u_1 \ge 0, u_2 \ge 0$, $\{g_i(u_1,u_2)\}_{i=1}^3$ lar $\mathbb{R}^2$ da koordinatalar boshining yetarlicha kichik atrofida aniqlangan haqiqiy kasr darajali qatorlar.

Tadqiqot natijalari

Quyidagi belgilashlardan foydalanamiz:

$$B_1 = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}, \quad B_2 = \begin{vmatrix} b_1 & c_1 \\ b_2 & c_2 \end{vmatrix}, \quad B_3 = \begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}.$$

Ta’kidlash kerakki, agar $g_i(0,0) \neq 0$ va B_1, B_2, B_3 sonlardan kamida bittasi noldan farqli bo‘lsa, u holda (2) sirtning (r_1, r_2, r_3) nuqtasining yetarlicha kichik atrofida va koordinatalar boshi shu nuqtada bo’lgan koordinatalar sistemasining koordinata tekisliklaridan tashqarida yotadigan nuqtalari regulyar nuqtalaridir. (2) sirtning koordinatalar boshi (r_1, r_2, r_3) nuqtada bo‘lgan koordinatalar sistemasining koordinatalar tekisliklarida yotadigan nuqtalari uning singulyar nuqtalari bo‘lishi mumkin [12].

(3) singulyar sirtlar bilan bog‘langan (2) o‘rtalashtirish operatori quyidagicha aniqlanadi:

$$A_t^{\phi} f(y) = \int_{R_+^2} f\Big(y_1 - t\Big(r_1 + u_1^{a_1}u_2^{a_2}g_1(u_1,u_2)\Big),$$
$$y_2 - t\Big(r_2 + u_1^{b_1}u_2^{b_2}g_2(u_1,u_2)\Big), y_3 - t\Big(r_3 + u_1^{c_1}u_2^{c_2}g_3(u_1,u_2)\Big)\Big) \cdot$$

$$\cdot \psi_1(u_1,u_2)\sqrt{\phi(u_1,u_2)}du_1du_2.$$

Bunda $\phi(\mathrm{u}_1,\mathrm{u}_2)=EG-F^2$ kasr darajali qator, E,F,G lar (3) sirtning birinchi kvadratik formasining koeffitsentlari, $f\in C_0^\infty(\mathbb{R}^3)$ va

$$\psi_1(u_1,u_2)=\ \psi\big(r_1+u_1^{a_1}u_2^{a_2},\ r_2+u_1^{b_1}u_2^{b_2},r_3+u_1^{c_1}u_2^{c_2}\big).$$

(1) ga ko'ra $A_t^\phi f$ operatorga mos maksimal operator quyidagiga teng:

$$\mathcal{M}^\phi f(y)\coloneqq \sup_{t>0}\left|A_t^\phi f(y)\right|,\qquad y\in\mathbb{R}^3.$$

$\mathcal{M}^\phi f$ maksimal operatorni (3) sirtning (r_1,r_2,r_3) singulyar nuqtasining yetarlicha kichik atrofida o'rganamiz va bu operator $L^p(\mathbb{R}^3)$ fazoda bazi $p\,(p>2)$ larda chegaralanganligini va ba'zi p larda chegaralanmaganligini isbotlaymiz. Biz ushbu ishda $\mathcal{M}^\phi f$ maksimal operatorning chegaralanganlik ko'rsatkichi quyidagiga teng bo'lishini aniqladik:

$$p'(S)=\max\left\{\frac{a_1}{c_1+b_1},\frac{a_2}{c_2+b_2},\frac{b_1}{a_1+c_1},\frac{b_2}{a_2+c_2},\frac{c_1}{a_1+b_1},\frac{c_2}{a_2+b_2}\right\}.$$

Quyidagi teorema ishning asosiy natijasidir.

Teorema. Faraz qilaylik, $\{g_i(u_1,u_2)\}_{i=1}^3$ lar $\mathbb{R}^2$ da koordinatalar boshining yetarlicha kichik atrofida aniqlangan haqiqiy kasr darajali qatorlar bo'lib, $g_i(0_1,0)\neq 0$ bo'lsin, hamda $B_1\neq 0, B_2\neq 0, B_3\neq 0$ shartlar bajarilsin. U holda (r_1,r_2,r_3) nuqtaning shunday U atrofi mavjud bo'lib, har qanday $\psi_1\in C_0^\infty(U)$ funksiya uchun $M^\phi f$ maksimal operator $p>\max\{p'(S),2\}$ bo'lganda $L^p(\mathbb{R}^3)$ da chegaralangan bo'ladi. Bundan tashqari, agar $\psi_1\,(0,0)>0$ va $p'(S)>2$ bo'lsa, $M^\phi f$ maksimal operator $2<\ p\le p'(S)$ bo'lganda $L^p(\mathbb{R}^3)$ da chegaralanmagan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stein E. M., Maximal functions. Spherical means, Proc.Nat. Acad. Sci. U.S.A., 73(7) (1976) 2174-2175.

2. Bourgain J., Averages in the plane convex curves and maximal operators, J.Anal. Math., 47 (1986) 69-85.

3. Greenleaf A. , Principal curvature and harmonic analysis, Indiana Univ. Math. J., 30(4) (1981) 519-537.

4. Sogge C.D., Maximal operators associated to hypersurfaces with one nonvanishing principal curvature. In Fourier analysis and partial differential equations, Stud. Adv. Math., pages 317-323.CRC, Boca Raton, FL, 1995.

5. Cowling M., and Mauceri G., Inequalities for some maximal functions. II. Trans. Amer. Math. Soc., 296(1):341-365, 1986.

6. Nagel A., Seeger A., and Wainger S., Averages over convex hypersurfaces. Amer. J. Math., 1993. 115. 4. P. 903–927.

7. Iosevich A., Maximal operators, associated to families of flat curves in the plane. Duke Math. J., 76(2): 633-644, 1994.

8. Greenblatt M., L^p boundedness of maximal averages over hypersurfaces in R^3. Trans. Amer. Math. Soc., 2013. 365. P. 1875–1900.

9. Ikromov I.A., Kempe M., Müller D., Estimates for maximal functions associated to hypersurfaces in R^3 and related problems of harmonic analysis. Acta Math. 204 (2010), 151-271.

10. Ikromov I. A., Damped oscillatory integrals and maximal operators, Mathematial Notes, 78(6) (2005) 833-852.

11. Ikromov I.A., Usmanov S.E., On boundedness of maximal operators associated with hypersurfaces. J Math Sci. 264, (2022), 715-745.

12. Usmanov S. E., The Boundedness of Maximal Operators Associated with Singular Surfaces, Russian Mathematics, 65(6) (2021) 73-83.

PARAMETRIK TENGLAMALAR BILAN BERILGAN SINGULYAR SIRTLAR HAQIDA

Usmanov Salim Eshimovich[1], Po'latov Baxtiyor Sobirovich[2], Ibragimov Nurbek Sanjar o'g'li[3]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti,
[2]Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Assistent, bpsbaxtiyor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda uch o'lchovli Evklid fazosida parametrik tenglamalar orqali berilgan sirtlarning regulyar va singulyar nuqtalari aniqlangan.

Kalit so'zlar: Parametrik tenglama, sirt, regulyar nuqta, singulyar nuqta, singulyar sirt.

Kirish

Ma'lumki, agar $x_1(u_1,u_2), x_2(u_1,u_2), x_3(u_1,u_2)$ lar differensiallanuvchi funksiyalar bo'lib, uch o'lchovli Evklid fazosidagi biror sirt

$$x_1 = x_1(u_1,u_2),\ x_2 = x_2(u_1,u_2),\ x_3 = x_3(u_1,u_2) \qquad (1)$$

parametrik tenglamalar bilan berilgan bo'lsa, u holda quyidagi ta'rif o'rinli.

Ta'rif. Agar (u_1,u_2) nuqtada ushbu

$$C = \begin{pmatrix} \frac{\partial x_1}{\partial u_1} & \frac{\partial x_2}{\partial u_1} & \frac{\partial x_3}{\partial u_1} \\ \frac{\partial x_1}{\partial u_2} & \frac{\partial x_2}{\partial u_2} & \frac{\partial x_3}{\partial u_2} \end{pmatrix}$$

matritsaning rangi 2 ga teng bo'lsa, u holda (1) sirtning

$$P = (x_1,x_2,x_3) = \big(x_1(u_1,u_2), x_2(u_1,u_2), x_3(u_1,u_2)\big)$$

nuqtasi uning regulyar nuqtasi deyiladi ([1, 72-b.] yoki [2, 218-b.]). Sirtning regulyar bo'lmagan nuqtalari uning singulyar nuqtalari deyiladi.

$\mathbb{R}^3$ fazoda quyidagi parametrik tenglamalar bilan berilgan sirtlarni qaraymiz:

$$\begin{aligned} x_1(u_1,u_2) &= r_1 + u_1^{a_1}u_2^{a_2}f_1(u_1,u_2), \\ x_2(u_1,u_2) &= r_2 + u_1^{b_1}u_2^{b_2}f_2(u_1,u_2), \\ x_3(u_1,u_2) &= r_3 + u_1^{c_1}u_2^{c_2}f_3(u_1,u_2). \end{aligned} \qquad (2)$$

Bu yerda r_1,r_2,r_3 - ixtiyoriy haqiqiy sonlar va a_1,a_2,b_1,b_2,c_1,c_2 - manfiy bo'lmagan butun sonlar, $u_1 \geq 0, u_2 \geq 0$, $f_i(u_1,u_2)$ - $\mathbb{R}^2$ da koordinatalar boshining yetarli kichik atrofida analitik funksiyalar.

Tadqiqot natijasi

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$B_1 = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}, \quad B_2 = \begin{vmatrix} b_1 & c_1 \\ b_2 & c_2 \end{vmatrix}, \quad B_3 = \begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}.$$

(2) sirtni yuqoridagi ta'rif bo'yicha tekshirib, quyidagi teorema o'rinli bo'lishini ko'ramiz.

Teorema. Agar $f_i(u_1,u_2)$ lar $\mathbb{R}^2$ da koordinatalar boshining yetarli kichik atrofida aniqlangan analitik funksiyalar bo'lib, $f_i(0,0) \neq 0$ va B_1,B_2,B_3 sonlardan kamida bittasi noldan farqli bo'lsa, u holda (2) sirtning (r_1,r_2,r_3) nuqtasining yetarlicha kichik atrofida va koordinatalar boshi shu nuqtada bo'lgan koordinatalar sistemasining koordinata tekisliklaridan tashqarida yotadigan nuqtalari regulyar nuqtalaridir. (2) sirtning koordinatalar boshi (r_1,r_2,r_3) nuqtada bo'lgan koordinatalar sistemasining koordinatalar tekisliklarida yotadigan nuqtalari uning singulyar nuqtalari bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б.А.Дубровин, С.П.Новиков, А.Т.Фоменко. Современная геометрия. Москва "Наука". 1979.
2. П.К.Рашевский. Курс дифференциальной геометрии. Москва, 1938.

FURYE QATORLARI VA UNING AYRIM TADBIQLARI

O. Abdullayev
Samarqand davlat universiteti "Nazariy va amaliy mexanika" kafedrasi dotsenti.
S.Gafforova
Sirdaryo viloyati pedogogik maxorat markazi. Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: abdullaev2006@inbox.ru

Fan va texnikada davriy funsiyalar ko'p uchraydi. Bu hodisalar T davr bilan takrorlanadi, ular davriy $\varphi(x+T)=\varphi(x)$ funksiya bilan xarakterlanadi. Ushbu maqolada $y=A\sin(\omega t+\alpha)$ funksiya bilan aniqlanadigan garmonik jarayonlarni o'rganamiz. Agar funksiya $2l$ davrga ega bo'lsa uning ko'rinishi:

$$y=A\sin(\frac{\pi nx}{l}+\alpha),\ n=0;1;2;...$$

Shunday qilib davri $2l$ bo'lgan funksiyani

$$f(x)=A_0+\sum_{n=1}^{\infty}A_n\sin(\frac{\pi nx}{l}+\alpha) \tag{1}$$

qatorga yoyish bilan shug'ullanamiz. Geometrik nuqtai nazardan davriy funksiyaning grafigi sinusoidadir grafiklarini qo'shishdan hosil qilinadi. Agar $l=\pi$ bo'lsa (1) qator eng sodda ko'rinishda bo'ladi.

$$f(x)=A_0+\sum_{n=1}^{\infty}A_n\sin(nx+\alpha) \tag{2}$$

(1) ni $x=\frac{lt}{\pi}$ almashtirish orqali (2) ga keltirish mumkin. Agar

$$\sin(nx+\alpha)=\sin\alpha\cos nx+\cos\alpha\sin nx$$

dan foydalansak (2) ni quyidagicha yozish mumkin.

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}\left(a_n\cos nx+b_n\sin nx\right) \tag{3}$$

Agar $e^{i\varphi}=\cos\varphi+i\sin\varphi$ –Eyler formulasidan foydalansak (3) ni yana quyidagicha yozish mumkin:

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{a_n}{2}\left(e^{inx}+e^{-inx}\right)+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{b_n}{2i}\left(e^{inx}-e^{-inx}\right)=$$

$$=\frac{a_0}{2}+\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}(a_n-b_ni)e^{inx}+\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}(a_n+b_ni)e^{-inx}$$

$$\frac{1}{2}(a_n-b_ni)=c_n;\ \frac{1}{2i}(a_n+b_ni)=c_{-n},\ \frac{a_0}{2}=c_0$$

belgilashlarni kiritsak, yuqoridagi qatorni quyidagicha tasvirlash mumkin

$$f(x)=\sum_{n=1}^{\infty}c_ne^{inx} \tag{4}$$

Agar funksiya Dirixle shartini qanoatlantirsa uni yaqinlashuvchi trigonometrik qatorga yoyish mumkin. $[-\pi;\pi]$ oraliqda ushbu sistemani qaraymiz:

$$\frac{1}{\sqrt{2\pi}};\frac{\cos x}{\sqrt{\pi}};\frac{\sin x}{\sqrt{\pi}};\frac{\cos 2x}{\sqrt{\pi}};\frac{\sin 2x}{\sqrt{\pi}};...;\frac{\cos nx}{\sqrt{\pi}};\frac{\sin nx}{\sqrt{\pi}};... \qquad (5)$$

Bu oronormal sistemadir. U holda (3) dagi a_0, a_n, b_n lar quyidagicha topiladi:

$$a_0=\frac{1}{2\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)dx,\ a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)\cos nxdx,\ b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)\sin nxdx,\quad n=1,2... \qquad (6)$$

ularga Furye koeffitsiyentlari deyiladi.(3) da $\lim\limits_{n\to\infty} a_n=\lim\limits_{n\to\infty} b_n=0$ ya'ni agar $f(x)$ funksiya $[-\pi;\pi]$ da absolyut integrallanuvchi bo'lsa, da Furye koeffisiyentlari nolga intiladi. Dirixle teoremasini keltiramiz:

Agar $f(x)$ funksiya $[-\pi;\pi]$ oraliqda aniqlangan, bo'lakli uzluksiz, bo'lakli monoton va chegaralangan bo'lsa, uning $[-\pi;\pi]$ dagi Furye qatori oraliqning barcha nuqtalarida yaqinlashuvchi bo'ladi. Agar $S(x)$, $f(x)$ ning Furye qatori yig'indisi bo'lsa $f(x)$ ning barcha uzluksizlik nuqtalarida $S(x)=f(x)$ barcha uzulish nuqtalarida esa

$$S(x)=\frac{1}{2}[f(x-0)+f(x+0)] \quad \text{va} \quad S(\pi)=S(-\pi)=\frac{1}{2}[f(\pi-0)+f(\pi+0)]$$

Misol1. Davri 2π bo'lgan ushbu funksiyani Furye qatoriga yoying:

$$f(x)=\begin{cases}-x, & -\pi\le x<0\\ \dfrac{x^2}{\pi}, & 0\le x\le\pi\end{cases}$$

Yechish: Bu funksiya intervalning har xil qismida har xil ko'rinishda berilgan: $[-\pi;0)$ va $[0;\pi]$

$$a_0=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)dx=\left(\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{0} f(-x)dx+\int_{0}^{\pi}\frac{x^2}{\pi}dx\right)=\frac{1}{\pi}\left(-\frac{x^2}{2}\Big|_{-\pi}^{0}+\frac{x^3}{3\pi}\Big|_{0}^{\pi}\right)=\frac{1}{\pi}\left(\frac{\pi^2}{2}+\frac{\pi^2}{3}\right)=\frac{5}{6}\pi$$

$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)\cos nxdx=\left(\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{0} f(-x)\cos nxdx+\frac{1}{\pi}\int_{0}^{\pi}\frac{x^2}{\pi}\cos nxdx\right)=$$

$$=-\frac{1}{\pi}\left(\frac{\cos nx}{n^2}+\frac{x\sin nx}{n}\right)\Big|_{-\pi}^{0}+\frac{1}{\pi^2}\left(\frac{x^2\sin nx}{n}-\frac{2}{\pi}\left(\frac{\sin nx}{n^2}-\frac{x\cos nx}{n}\right)\Big|_{0}^{\pi}\right)=$$

$$=-\frac{1}{\pi n^2}+\frac{(-1)^n}{\pi n^2}+2\frac{(-1)^n}{\pi n^2}=\frac{-1+3(-1)^n}{\pi n^2}=\begin{cases}-\dfrac{4}{\pi n^2}, & agar\ \ n\ \ toq\ \ bo'lsa\\ \dfrac{2}{\pi n^2}, & agar\ \ n\ \ juft\ \ bo'lsa\end{cases}$$

$$b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi} f(x)\sin nxdx=\left(\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{0} f(-x)\sin nxdx+\int_{0}^{\pi}\frac{x^2}{\pi}\sin nxdx\right)=$$

$$=\frac{1}{\pi}\left(\frac{\sin nx}{n}+\frac{x\cos nx}{n}\right)\Big|_{-\pi}^{0}+\frac{1}{\pi^2}\left(-\frac{x^2\cos nx}{n}+\frac{2}{\pi}\left(\frac{\cos nx}{n^2}+\frac{x\sin nx}{n}\right)\right)\Big|_{0}^{-\pi}=$$

$$=\frac{(-1)^n}{n}-\frac{(-1)^n}{n}+2\frac{(-1)^n}{\pi^2n^2}-\frac{2}{\pi^2n^2}=\begin{cases}-\dfrac{4}{\pi^2n^2}, & agar\ \ n\ \ toq\ \ bo'lsa\\ 0, & agar\ \ n\ \ juft\ \ bo'lsa\end{cases}$$

Natijada ushbu qatorga ega bo'lamiz:

$$f(x)=\frac{5}{12}\pi-\frac{4}{\pi}\cos\ x-\frac{4}{\pi^2}\sin\ x+\frac{1}{2\pi}\cos\ 2x-\frac{4}{9\pi}\sin\ 2x-\frac{4}{27\pi^2}\sin\ 3x+\ldots$$

Fure qatorlari xusussan matematik fizikaning turli masalalariga ham tadbiq etiladi. Misol sifatida torning erkin tebranma harakatini olamiz.

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}=a^2\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \tag{7}$$

$$u(0,t)=u(l,t)=0 \tag{8}$$

$$u(x,0)=f(x),\qquad u'(x,0)=\varphi(x) \tag{9}$$

(7)-torning tebranma harakati differensial tenglamasi; (8)-chegaraviy shart, (9)-boshlang'ich shart. Bu masala yechimi quyidagicha ko'rinishda izlaymiz.

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}\left(A_n\cos\frac{n\pi at}{l}+B_n\sin\frac{n\pi at}{l}\right)\sin\frac{n\pi x}{l} \tag{10}$$

Bu yerda

$$A_n=\frac{2}{l}\int_0^l f(x)\sin\frac{n\pi x}{l}dx;\quad B_n=\frac{2}{a\pi n}\int_0^l \varphi(x)\sin\frac{n\pi x}{l}dx \tag{11}$$

agar $a_n=\sqrt{A_n^2+B_n^2}$, $\psi_n=arctg\ \frac{A_n}{B_n}$ belgilash kiritsak (11) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}a_n\sin\left(\frac{n\pi at}{l}+\psi_n\right)\sin\frac{n\pi x}{l} \tag{12}$$

Misol 2. Uzunligi l bo'lgan sterjenda issiqlikning tarqalishi masalasi

$$\frac{\partial u}{\partial t}=a^2\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \tag{13}$$

$$u(x,0)=f(x) \tag{14}$$

$$u(0,t)=u(l,t)=0 \tag{15}$$

Bu masala yechimi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}A_n e^{-\left(\frac{n\pi at}{l}\right)}\sin\frac{n\pi x}{l} \tag{16}$$

Bu yerda

$$A_n=\frac{2}{l}\int_0^l f(x)\sin\frac{n\pi x}{l}dx \tag{17}$$

Xulosa. Furye qatorlari dastlab differensial tenglamalarni yechish yaratilgan bo'lib uning fan va texnikadagi ko'plab masalalarni yechishga tadbiqini ko'rish mumkin. Furye qatoriga yoyish kuchli apparatdir. Uni differensiallash yoki integrallashda garmonik holga saqlanib qoladi. Bu yerda teoremalar isbotsiz keltirildi, masalani keng o'rganish uchun kerakli adabiyotlar ro'yxati berildi.

Foydalanilan adabiyotlar

1. Кудряьвцев Л.Д. Курс математического анализ. В 3Т. Т.3. Гармонический анализ / Л.Д. Кудряьвцев-М:Дрофа, 2006 -351с
2. Пискунов Н.С. Дифференциальное и интегральное исчисление Т. 2/ Н.С. Пискунов -М:Интеграл –Пресс, 2005 -544с.

3. Ильин В.А. Основы математического анализа У.2/ В.А Ильин, Э.Г. Позняк- М:Наука. Физматлит. 2006-256с
4. Бугров Я.С. Высшей математике. В 3Т. Т.2. Дифференциальное и интегралное исчисление /Я.С. Бугров С.М. никольский-М:Дрофа, 2007 -472с

TAQRIBIY HISOBLASHLARNING O‘QUVCHILAR HISOBLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

O. Abdullayev
Samarqand davlat universiteti.
S.Gafforova
Sirdaryo viloyati pedogogik maxorat markazi.
E-mail: abdullaev2006@inbox.ru

Annotatsiya. *Oxirgi yillarda hisoblash malakalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmayapti. Bu ongli va puxta hisoblash malkalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu hatto kuchli o‘quvchining ham hisoblash malakalarining yo‘qligi tufayli testlarda o‘z bilimlarini to‘la qonli namoyish etishga xalaqit beradi.*

Kalit so‘zlar. Taqribiy hisoblash, matematik amal, zichlik, ulush.

Kirish. Hisoblash madaniyati matematika kursining barcha bosqichlarida shakllantiriladi, lekin uning asosi 1 sinfdan 6 sinfgacha yaratiladi. Bu davrda o‘quvchilar matematik amallardan ongli foydalanish ko‘nikmasini egallaydilar. Keyinchalik olingan ko‘nikma va malakalar takomillashadi va boshqa predmetlarni o‘rganishda mustahkamlanadi.

Hisoblash ko‘nikma va malakalari shakllangan deb hisoblanadi, agar o‘quvchilar natural sonlar, o‘nli va oddiy kasrlar bilan matematik amallarni yetarlicha tezlikda bajara olishlari hamda turli sonli ifodalarni ayniy almashtirishlarni va taqribiy hisoblashlarni bajara oladigan darajada ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lsa.

Taqribiy hisoblash qoidalari

Ko‘pincha tajribasiz odamlar hisoblashlarda foydalanilgan ma’lumotlar aniqligi bilan umuman mos tushmaydigan natijani hosil qiladilar. Bu esa mehnat va vaqtning behuda sarflanishiga olib keladi. Quyidagi holni qaraymiz.

Masalani yechishda biror jismning modda zichligi R ni hisoblash talab qilingan bo‘lsin. Jism hajmi $m = 9{,}38$ g va uning hajmi $V = 4{,}46\ см^2$ .berilgan bo‘lsin. Berilgan ma’lumotlar uchta ishonchli raqamga ega. Ishonchli raqamlar deb, noldan tashqari barcha raqamlarga aytiladi, hamda nol ikki holda: 1) u ishonchli raqamlar orasida joylashgan bo‘lsa; u berilgan sonda mos razryad birligi mavjud bo‘lmagan holda son oxirida turgan bo‘lsa, masalan, $1{,}57$, $0{,}00507$, $3{,}80$ sonlari uchta ishonchli iraqamga ega. Izlanayotgan modda zichligini hisoblashga tanqidiy yondashmasdan

$$\rho = \frac{m}{V} = \frac{9{,}38}{4{,}46} = 2{,}71098\ {}^{г}\!/_{см^3}.$$

natijani olish mumkin. Lekin yozilgan natija ishonchli bo‘lib faqat birinchi uchta ishonchli raqam hisoblanadi, bu berilganlar aniqligiga mos keladi. Demak, olingan natijani yaxlitlash lozim va

$$\rho = 2{,}71\ {}^{г}\!/_{см^3}.$$

ko‘rinishda yozish mumkin. Taqribiy hisoblashlarni quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda bajarish lozim.

Taqribiy sonlarni qo‘shish va ayirishda oxirgi natijani shunday yaxlitlanadiki, u hech bo‘lmaganda bitta taqribiy sonning razryad birliklarida bo‘lmagan raqmlarni o‘z ichiga olmasin. Masalan, sonlarni qo‘shishda

$$\begin{array}{l} 4{,}462 \\ 2{,}38 \\ 1{,}17273 \\ \underline{1{,}0262} \\ 9{,}04093 \end{array}$$

yig‘indini yuzdan bir ulushgacha yaxlitlab ,uni $9{,}04$ sga teng deb olish lozim.

Ko‘paytirishda ko‘paytuvchilarni shunday yaxlitlash lozimki, ularning har biri eng kam sondagi raqamlarga ega bo‘lgan son qancha ishonchli raqamlarga ega bo‘lsa, shuncha ishonchli raqamga ega bo‘lsin.

Masalan,

$$3{,}723 \cdot 2{,}4 \cdot 5{,}1846$$

ifodani hisoblash o‘rniga

$$3{,}7 \cdot 2{,}4 \cdot 5{,}2.$$

ifodani hisoblash lozim. Oxirgi natijada ko‘paytuvchilarda yaxlitlashdan so‘ng qancha ishonchli raqam bo‘lsa, shuncha raqam qoldirish lozim.Oraliq natijalarda bitta ko‘p ishonchli raqam qoldirish lozim. Bunday qoida taqribiy sonlarni hisoblashda ham amal qilinadi.

Kvadratga va kubga ko‘tarishda daraja asosida nechta ishonchli raqam bo‘lsa, shuncha ishonchli raqam olish kerak.

Masalan,

$$1{,}32^2 \approx 1{,}74.$$

Kvadrat yoki kub ildiz chiqarishda ildiz ostida qancha ishonchli raqam bo‘lsa, shuncha ishonchli raqam olish kerak.

Masalan,

$$\sqrt{1{,}17 \cdot 10^{-8}} \approx 1{,}08 \cdot 10^{-4}.$$

Murakkab ifodalarni hisoblashda ko‘rsatilgan qoidalarni bajarilayotgan amallar turi bilan mos ravishda qo‘llash lozim

Masalan,

$$\frac{(3{,}2+17{,}062)\sqrt{3{,}7}}{5{,}1 \cdot 2{,}007 \cdot 10^3}.$$

Ko‘paytuvchi 5,1 eng kam ishonchli raqamga ega, ya’ni ikkita. Shuning uchun barcha oraliq hisoblashlar natijalari uchta ishonchli raqamgacha yaxlitlanishi lozim:

$$\frac{(3{,}2+17{,}062)\sqrt{3{,}7}}{5{,}1 \cdot 2{,}007 \cdot 10^3} \approx \frac{20{,}3 \cdot 1{,}92}{10{,}3 \cdot 10^3} \approx \frac{39{,}0}{10{,}3 \cdot 10^3} \approx 3{,}79 \cdot 10^{-3}.$$

Natijani ikkita ishonchli raqamgacha yaxlitlashdan so‘ng oxirgi natija $3{,}8 \cdot 10^{-3}$ natijani olamiz. Bu qoidalarni na faqat masalalar yechishda, balki laboratoriya ishlarini bajarishda o‘lchashlar natijalarini qayta ishlashda foydalanish mumkin.

Taqribiy hisoblashlarga doir masalalar yechishga o‘rgatish.

1-masala. Kolba va po‘kak alohida tortildi, ulaprning massalari mos ravishda m_K= 323,1 *g* i m_P = 5,722 *g* larga teng bo‘ldi(po‘kak aniqroq tarozida tortildi). Kolba va po‘kakning birgalikdagi massasini topish uchun

m_{K+P} = 323,1 + 5,722 = 328,822g deb olish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Haqiqatdan, kolba massasi 0,1 g gacha aniqlikda topilgan va shuning uchun javobdagi yuzdan va mingdan birlar na faqat ortiqcha raqamlar, balki zararli: m_K massa 0,001 gacha aniqlangandek bo‘ladi, bu esa noto‘g‘ri. Shuning uchun qo‘shishda m_P ni 2 ta raqamgacha yaxlitlash lozim. Va hisoblashlarni quyidagicha bajarish lozim: m_{K+P} = 323,1 + 5,7 =328,8 *g*.

Bu javob yuqorida hisoblangan natijani yaxlitlasa ham hosil bo‘ladi. Shunday qilib, yig‘indida verguldan so‘ng eng katta absolyut xatolikka ega hadda qancha raqam bo‘lsa shuncha

olinadi. Agar qo‘shiluvchilar ko‘p bo‘lsa, ulardagi xatolar qo‘shilishi mumkin va yig‘indida katta xato berishi mumkin. Bunday hollarda ortiqcha raqam qoidasini qo‘llash tavsiya etiladi*:* bitta ortiqcha raqam qoldirish kerak, javobda esa uni yaxlitlash lozim. Masalan: 132,7; 1,274; 0,06321; 20,96; 46,1521 sonlar yig‘indisini topish talab etilgan bo‘lsin. Eng katta absolyut xatolik birinchi qo‘shiluvchida va u 0,1 ga teng. Shuning uchun qolgan qo‘shiluvchilarni. 0,01 gacha yaxlitlaymiz:

å=132,7 + 1,27 + 0,06 + 20,96 + 46,15 = 201,14 , ya’ni å = 201,1.

Agar biz ortiqcha raqam qoidasidan foydalanmaganimizda barcha qo‘shiluvchilarni 0,1 gacha yaxlitlagan bo‘lar edik, u hoda kamroq aniqlikdagi natijani olgan bo‘lar edik.:

å = 132,7+ 1,3 + 0,1+ 21,0+46,2 = 201,3.

2-masala. $\sqrt{5}+\sqrt{6}+\sqrt{7}+\sqrt{8}$ yig‘indini 0,01 gacha aniqlikda topish talab qilingan bo‘lsin, bunda ildiz ostida turgan butun sonlar aniq deb hisoblanadi. Ortiqcha raqam qoidasidan foydalanib ildizlar qiymatlarini 0,001 gacha aniqlikda qo‘yamiz:

2,236 + 2,449 + 2,646 + 2,828 = 10,159, t. ye. å= 10,16.

Agar qo‘shiluvchilar soni juda ko‘p bo‘lsa, ikkita ortiqcha raqamdan foydalanish mumkin. Verguldan so‘ng bir xil sondagi raqamlar bilan berilgan bir nechta qo‘shiluvchilar yig‘indisini hisoblashda yig‘indining limitik absolyut xatosi qo‘shiluvchilarnikidan kattaroq bo‘ladi. Shuning uchun javobni oldingi raqamgacha yaxlitlash maqsadga muvofiq. Masalan: å = 1,38 + 8,71 + 4,48 + 11,96 + 7,33.å = 33,86 ni olamiz. Lekin oxirgi raqam shubhali, shuning uchun javobni å = 33,9 ko‘rinishda yozish lozim.

Bir nechta miqdorlarning yig‘indisi yoki ayirmasining limitik absolyut xatosi bu miqdorlarning limitik absolyut xatoliklari yig‘indisiga teyeng. Masalan, agar ikkita miqdor 0,1 gacha aniqlangan bo‘lsa, u holda bu miqdorlarning yig‘indisi yoki ayirmasi, 0,2 gacha aniqlangan,chunki xatoliklar qo‘shilishi mumkin. Agar qo‘shiluvchilar juda ko‘p bo‘lsa u holda barcha xatolar qo‘shilishi kam ehtimoli. Bunday holda yig‘indining xatosini aniqlash uchun ehtimollar nazariyasi usullaridan foydalanish lozim. Bundan ko‘rinadiki, yig‘indida bir raqamni taxminan beshta qo‘shiluvchidan boshlab, ikkita raqamni esa taxminan 500 ta qo‘shiluvchidan boshlab yaxlitlashni boshlash lozim.

Xulosa. Taqribiy sonlarni ayirishda ham qo‘shishdagi qoidalar o‘rinli, lekin yaqin sonlarni ayirishda nisbiy aniqlik keskin yomonlashadi. Masalan, 327,48 va 326,91sonlar ayirmasini topish kerak bo‘lsin, Ayiriluvchi va kamayuvchida D = 0,01, ya’ni. $d < 0{,}004\%$. 0,57 ga teng ayirmada esa limitik absolyut xato 0,02 ga teng, shuning uchun limitik nisbiy xato $d = 3{,}5\%$. Nisbiy xato 1 000 martaga ortdi!

Shuning uchun yaqin sonlar ayirmasini bunday ayirishni bajarmasdan o‘lchash yoki hisoblashga harakat qilish lozim.

Adabiyotlar

[1] A.N. Krilov. Leksii o priblijyonnых vыchisleniyax. M.-L. 1950.
[2] S.M. Nikolskiy i dr. Arifmetika-5. M., 2005.
[3] S.M. Nikolskiy i dr. Arifmetika-6. M., 2006.
[4] S.M. Nikolskiy i dr. Algebra-7. M., 2003.
[5] S.M. Nikolskiy i dr. Algebra-9. M., 2006.
[6].Sh.A. Alimov , Algebra 8, M.-Drofa, 2009

ANALYSIS OF THE SOLOW GROWTH MODEL USING MAPLE SOFTWARE

J.Uralov

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstarct: *This paper presents a computational analysis of the Solow growth model using Maple software. We implement the core differential equation of the neoclassical growth model,*

examine convergence properties, and analyze the effects of parameter variations. The study includes graphical representations of capital dynamics under different initial conditions and policy scenarios.

Keywords: *Core Economic Concepts, Solow growth model, Neoclassical economic growth, Capital accumulation dynamics, Steady-state equilibrium analysis, Cobb-Douglas production function, Savings rate effects, Technological progress in growth models, Population growth rate impact.*

Mathematical Foundation

The Solow growth model is governed by the fundamental differential equation

$$\frac{dk}{dt} = s \cdot f(k) - (n + g + \delta) \cdot k \qquad (1)$$

Where:

- k =capital per effective worker (*K/AL*)
- s =savings rate
- $f(k) = k^a$ =production function (Cobb-Douglas)
- n =population growth rate
- δ =depreciation rate
- a =capital's share of output

The steady-state condition is derived by setting $\frac{dk}{dt} = 0$:

$$k^* = \left(\frac{s}{n+g+\delta}\right)^{\frac{1}{1-a}} \qquad (2)$$

Maple Implementation

Parameter Initialization

```
restart;
with(plots):
with(DEtools):

# Model parameters
s := 0.3;        # Savings rate
n := 0.02;       # Population growth
g := 0.01;       # Tech progress
delta := 0.05;   # Depreciation
alpha := 0.3;    # Capital elasticity

# Production function
f := k -> k^alpha;
```

Capital Dynamics

The core differential equation is implemented as:

```
diff_eq := diff(k(t), t) = s*f(k(t)) - (n + g + delta)*k(t);
```

Numerical Solutions

We compute trajectories for different initial conditions:

```
init_conds := [k(0)=0.5, k(0)=1, k(0)=2, k(0)=3];
solutions := seq(dsolve({diff_eq, ic}, k(t), numeric), ic in
    init_conds);

# Plotting
colors := [red, blue, green, black];
display(seq(
  odeplot(solutions[i], [t, k(t)], 0..100, color=colors[i],
  legend=cat("k(0)=", rhs(init_conds[i]))),
  i=1..nops(init_conds)),
  title = "Capital Dynamics",
  labels = ["Time", "Capital per worker"],
  labeldirections = [horizontal, vertical]);
```

Comparative Dynamics
Savings Rate Variations

```
s_values := [0.2, 0.25, 0.3, 0.35];
solutions_s := map(s_val -> dsolve({subs(s=s_val, diff_eq), k(0)
    =1},
                k(t), numeric), s_values);

display(seq(
```




Figure1: Convergence to steady state from different initial conditions

```
  odeplot(solutions_s[i], [t, k(t)], 0..100,
  legend=cat("s=", s_values[i])),
  i=1..nops(s_values)),
  title = "Savings Rate Effects");
```

Steady State Analysis
The steady-state solution is computed symbolically:

```
steady_state := solve(s*k^alpha = (n + g + delta)*k, k);
```

Which yields:

$$k^* = \left(\frac{s}{n+g+\delta}\right)^{\frac{1}{1-a}}$$

Conclusions

The Maple implementation demonstrates several key insights:

- The economy converges to steady state regardless of initial conditions
- Higher savings rates increase steady-state capital but long-run growth
- Technological progress is crucial for sustained growth
- The model provides a framework for policy analysis

Table 1: Parameter Effects on Steady State

Parameter Change	Effect on k^*
Increase in s	↑
Increase in n	↓
Increase in g	↓
Increase in δ	↓

REFERENCES

[1] Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth". The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94.

[2] Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (2004). Economic Growth (2nd ed.). MIT Press.

[3] Romer, D. (2019). Advanced Macroeconomics (5th ed.). McGraw-Hill Education.

[4] Humpherys, J., & Jarvis, T. (2019). Foundations of Applied Mathematics, Volume 2: Algorithms, Approximation, Optimization. SIAM.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich, Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li[2]

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali

Farmonov O‘ktamjon Rustamovich[3], *SamDU Kattqo‘rg‘on filiali, talabasi*[2]*.,*

rajabovsuxrob72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aniq va tabiiy fanlar o‘qitilishida yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, matematikaning boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanmasdan, izolyatsiyalangan holda o‘qitilishi tanqid qilinadi. Shuningdek, fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali bu muammoning yechimlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: aniq fanlar, tabiiy fanlar, matematika, fanlararo integratsiya, o‘qitish metodikasi, amaliy topshiriqlar, fanlararo aloqalar, o‘quvchilarga motivatsiya, real hayotiy misollar, matematik formulalar.

Kirish Aniq va tabiiy fanlar jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishlar bo‘lib, ular orqali insoniyat turli ixtirolar, yangiliklar, va yangilanishlarga erishgan. Ushbu fanlar, o‘zining kashfiyotlari va yutuqlari bilan dunyoqarashni o‘zgartirgan va zamonaviy texnologiyalarni yaratish imkonini bergan. Shu bilan birga, aniq va tabiiy fanlarning o‘qitilishi jarayonida ko‘plab muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun yangi yondashuvlar, metodlar va pedagogik strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Ushbu fanlar o‘qitilishida eng jiddiy muammolardan biri bu fanlararo bog‘liqlikning yetarli darajada yo‘qolganligidir. Aniq va tabiiy fanlar o‘rtasida kuchli integratsiya va uzviy aloqaning yo‘qligi o‘quvchilarning ilmiy sohalar bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishda to‘sqinlik qilmoqda. O‘quvchilarga, ayniqsa, matematika fani faqatgina matematik formulalarni yechish yoki nazariy bilimlarni yodlash bilan cheklanishi ko‘pincha noaniqlik, tushunmovchilik va qiziqmaslikka olib keladi. Matematika o‘qitish jarayonida uning amaliy qo‘llanilishi va boshqa sohalar bilan uzviy bog‘lanishi yetarli darajada taqdim etilmaydi, bu esa o‘quvchilarda “bu

bilimlar hayotda qanday qo‘llaniladi?” degan savolni tug‘diradi. Bunda, formulalarni yodlash va ularni yechishdan ko‘ra, ularga nisbatan motivatsiya va tushuncha yaratish zarurati mavjud.
Misol uchun, matematika fanining ko‘plab sohalarda, jumladan, moliya, iqtisodiyot, tibbiyot, fizika, kimyo va boshqa sohalarda qo‘llanilishini tushunish juda muhim. Aks holda, o‘quvchilar uchun matematikaning dolzarbligi va uning kundalik hayotdagi o‘rni aniqlanmaydi. Masalan, moliya sohasida foizlar, kredit grafigi, amortizatsiya kabi tushunchalar matematikaning progressiya, logarifmlar, statistik taqsimotlar kabi formulalari asosida ishlaydi. Shuningdek, tibbiyotda differensial tenglamalar va grafik tahlillar yordamida qon aylanish tezligi, yurak urish ritmlari va dori moddalarning taqsimlanishi tushuntiriladi. Ushbu formulalar real hayotda qanday qo‘llanilishini tushunmasdan, o‘quvchilar ularni faqat raqamli amallar sifatida ko‘rib, ularning ahamiyatini yodlashda davom etadilar.
Shu sababli, matematika fani boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitilsa, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni samarali bo‘ladi. Fanlararo bog‘lanish o‘quvchilarni matematik bilimlarning hayotdagi real qo‘llanilishi haqida o‘ylashga undaydi va bu ularda fanlarga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Matematik formulalar o‘qitishda ularning amaliyotda qanday ishlatilishini ko‘rsatish orqali, o‘quvchilarga bu bilimlarning ularga qanday foyda keltirishi haqida to‘liq tasavvur shakllanadi.
Bundan tashqari, matematika fanining yodlanadigan va amaliyotga yaqinlashtirilmagan formulalarga qaratilishi, o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga to‘g‘ri kelmaydi va bu o‘z navbatida ular orasida fanga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga olib keladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun, fanlararo bog‘lanishni kuchaytirish zarur, chunki o‘quvchilarga nafaqat formulalarni o‘rganish, balki bu bilimlarni hayotda qanday qo‘llanilishini tushuntirish muhimdir. Matematika va boshqa fanlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlash orqali, o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini real holatga bog‘lab, o‘rganganlarini kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatini topadilar. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ta’lim olishini yanada samarali va mazmunli qiladi.

Matematika va boshqa fanlar o‘rtasida bog‘lanishni o‘rganishda matematik formulalar yirik ahamiyatga ega. Quyida ba’zi formulalarning real hayotdagi qo‘llanishiga misollar keltirilgan:

Populyatsiya o‘sishi modeli (Malthusian growth model):

$$\frac{dN}{dt} = rN \quad \text{yoki} \quad P(t) = P_0 e^{rt}$$

Bu formula populyatsiyaning o‘sishini tasvirlaydi. Bu yerda N – populyatsiya soni, r – o‘sish sur’ati, t – vaqt. Bu formula populyatsiyaning o‘sishini tasvirlaydi. $P(t)$ – vaqtning ttt-da populyatsiya soni, P_0 boshlang‘ich populyatsiya soni, r – o‘sish sur'ati, t – vaqt (yillar).
Eksponensial kamayish modeli:

$$P(t) = P_0 e^{-rt}$$

Logistik o‘sish modeli:

$$\frac{dN}{dt} = rN\left(1 - \frac{N}{K}\right)$$

Bu formulada K – resurslar chegarasi (taqsimlashning maksimal darajasi), r – o‘sish sur’ati, va N – populyatsiya soni.

Genetik mozaika (Hardy-Weinberg tenglamasi):

$$p^2 + 2pq + q^2 = 1$$

Bu formula genetik populyatsiyada allellarning taqsimlanishini tahlil qilish uchun ishlatiladi, bunda p va q genotiplarning chastotalarini ifodalaydi.

Dori moddalarining konsentratsiyasini hisoblash (Pharmacokinetics):

$$C(t) = C_0 e^{-kt}$$

assessing the effectiveness of our digital transformation initiatives. In conclusion, the digital transformation of vocational education is an exhilarating journey filled with opportunities for growth and innovation. By embracing these changes, we can equip students and educators alike for a brighter, more connected future! Let's move forward with confidence and enthusiasm, fueled by our shared commitment to excellence in vocational education.

DIGITAL SOLUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH AND WELLNESS TOURISM IN UZBEKISTAN

Kudratov Mirjalol Khurshid ugli,
Samarkand region, Kattakurgan city, Uzbekistan
Master's degree student of "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage in the field of Tourism and Hospitality
Head of International Cooperation Department of Kattakurrgan branch of Samarkand State University
kudratovmirjalol08@gmail.com

Abstract

It has become a strategic segment in efforts of Uzbekistan to diversify tourism proposition and boost economic resilience. This research discusses the existing state of health and wellness tourism in Uzbekistan and evaluates the contribution of digital technologies in this sphere of tourism. By a mixed-method online qualitative and quantitative survey approach, the study identifies main challenges and opportunities, and gives recommendations for digitalisation of health tourism services. The research implies that digital platforms can vastly improve visitor experience, reach a worldwide audience, and help economic growth in a sustainable way.

Keywords: Health tourism, wellness, Uzbekistan, digital transformation, spa tourism, sustainable development, online platforms.

Аннотация

Медицинский и велнес-туризм стали стратегическим направлением в усилиях Узбекистана по диверсификации туристических услуг и укреплению экономической устойчивости. В данном исследовании рассматривается текущее состояние сферы медицинского и оздоровительного туризма в Узбекистане, а также оценивается роль цифровых технологий в продвижении и управлении этой отраслью. Результаты показывают, что интеграция цифровых платформ может существенно улучшить опыт туристов, расширить международное присутствие и способствовать устойчивому экономическому развитию.

Ключевые слова: Медицинский туризм, велнес, Узбекистан, цифровая трансформация, спа-туризм, устойчивое развитие, онлайн-платформы.

Annotasiya

Sog'liqni saqlash va wellness turizmi O'zbekistonning turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lidagi strategik sohalardan biriga aylandi. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda sog'liqni saqlash va wellness turizmining hozirgi holati tahlil qilinadi hamda ushbu sohani targ'ib qilish va boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni baholanadi. Sifat va miqdoriy tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, asosiy muammolar va imkoniyatlar aniqlanib, sog'liqni saqlash turizmini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalarni integratsiya qilish mehmonlar tajribasini yaxshilaydi, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.


Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash turizmi, wellness, O'zbekiston, raqamli transformatsiya, spa turizmi, barqaror rivojlanish, onlayn platformalar

1.Introduction

Global wellness tourism market has been witnessing a rapid growth due to rising awareness of consumers towards the health and preventive care. Uzbekistan, with its natural resources, mineral springs, traditional healing practices, and historical spa centers like “Chorvoq,” “Zomin,” and “Obi Hayot,” holds significant potential in this domain. But to sell into the global sector, it must utilize digital tools to enhance service delivery as well as customer marketing strategies.

2. Literature Review

Wellness tourism, per il Global Wellness Institute (2023), incasserà una crescita a doppia cifra annuale (CAGR) del 9.9% sino al 2025. Countries with well-existing digital technology and actively supporters promoted campaigns and enjoy also more wellness tourists (Smith & Puczkó, 2014). For Central Asia, the health tourism up to date remains understudied, even when initiatives in Kazakhstan and Kyrgyzstan present valuable versions of comparison (Alimov and Rustamova, 2022).Digital platforms—https://www.hotels-casablanca.ma/ booking engines, telemedicine integrations, virtual tours, and AI personalization – are gradually determining in tourism such as offered how tourists picks destinations (Zeng, 2021).



3. Methodology

This study employed a mixed-method approach:

Quantitative survey: 35 people, including domestic and international tourists, were researched online about their interest in wellness tourism in the Uzbekistan.


Qualitative interviews: Were held with 5 stakeholders, which included spa manager, tourism officials and IT specialists.

Secondary data: Analysis of existing reports from the State Committee for Tourism Development and digital marketing platforms.

4. Results and Discussion


Findings highlight:

High interest in spa and natural healing destinations, particularly from tourists in Russia, Korea, and the Gulf countries.



Low digital exposure of Uzbekistan's wellness tourism facilities—only 23% have multilingual websites or booking engines..

Will to adopt technology: Finance and technical expertise must be addressed as major stakeholders are ready to implement, but realizing the resources have prompted reluctance in the majority.



Digital transformation can:

Improve accessibility and transparency

Enable real-time health consultations

Attract global audiences through SEO and content marketing

Integrate feedback loops via online review systems

5. Recommendations

The aim is to enhance Uzbekistan's Wellness tourism through the digital channel.


1.Create a national wellness tourism portal complimenting all of the countries health resorts, spas and preventive healing centers.

2.Train local businesses in digital marketing, data analytics, and online booking management.

3.Work with international health tourism platforms as Healing Hotels of the World or SpaFinder.

4.**Incentivise technology** Start-ups to build apps or platforms that boost the experience of wellness traveling.

5.**Use AI and big data** for targeted advertising and service customization.



6. Conclusion

Uzbekistan's abundant health and wellness resources give competitive advantage in the global tourism. But digital instruments should be used effectively to release this potential. Digitizing the country's healthcare services, alongside the backing of policies and an alliance of industries, can get the country on the health and wellness map.

References

Alimov, B., & Rustamova, Z. (2022). Regional Tourism Development in Central Asia: Comparative Analysis. Tashkent: University of Tourism Press.

Global Wellness Institute. (2023). Global Wellness Tourism Economy. Retrieved from https://globalwellnessinstitute.org

Smith, M., & Puczkó, L. (2014). Health, Tourism and Hospitality: Spas, Wellness and Medical Travel. Routledge.

Zeng, B. (2021). Digital transformation in wellness tourism: A customer experience perspective. Journal of Destination Marketing & Management, 20, 100589. https://doi.org/10.1016/j.jdmm.2021.100589

TEST TEXNOLOGIYALARINING O‘QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYASI, SAMARADORLIK TAHLILI

Rasulov Ulug’bek Murodulloyevich
O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
u_rasulov80@mail.ru, +998-97-920-07-35

Annotatsiya. *Mazkur maqola test texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi va uning samaradorligi tahlil qilinadi. O‘quv jarayonidagi baholash vositalarining ahamiyati va test tizimlarining o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashdagi roli muhokama qilinadi. Maqolada test texnologiyalarining integratsiya shakllari, jumladan, dars davomida, modul asosida, raqamli platformalar orqali va individual yondashuvlarni qo‘llashda qanday samarali ishlatilishi mumkinligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, test texnologiyalarining o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilar faoliyatini optimallashtirishdagi roli ta’kidlanadi. Maqola statistik tahlil, amaliy misollar va real o‘quv muhitlarida o‘tkazilgan kuzatuvlar asosida test tizimlarining samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqaradi. Tadqiqot natijalari test texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali yo‘naltirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada test texnologiyalarining ta’lim tizimiga yanada chuqurroq integratsiyasi uchun takliflar va istiqbollar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: test texnologiyalari, o‘quv jarayoni, baholash, integratsiya, samaradorlik, sun’iy intellekt, tahlil, masofaviy ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — bu ta’lim sifatini oshirish va uning natijadorligini aniq o‘lchashdir. Ushbu jarayonda baholash vositalarining samaradorligi va adolatliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida an’anaviy baholash usullari o‘rnini interaktiv, moslashuvchan va sun’iy intellekt asosidagi test texnologiyalari egallab bormoqda.

Test texnologiyalari — bu talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini obyektiv, tezkor va tizimli tarzda aniqlash imkonini beruvchi usullar majmuasi bo‘lib, ular nafaqat nazorat funksiyasini, balki o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida metodik va rivojlantiruvchi vazifani ham bajaradi. Ayniqsa, test savollari asosida tuzilgan o‘quv modullari, individual ta’lim yo‘nalishlari va adaptiv baholash platformalari talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Test texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi – bu ularni o‘quv dasturlari, dars rejasi, fanlar mazmuni va baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi. Ushbu integratsiya orqali o‘quv jarayoni monitoringi muntazam olib boriladi, talabalarning qiyinchilik darajalari aniqlanadi, o‘qituvchining metodik yondashuvlari esa natijalarga qarab optimallashtiriladi.

Test texnologiyalarining mohiyati va rivojlanish tendensiyalari. Test texnologiyalari — bu talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniq, tezkor hamda tizimli baholashga yo‘naltirilgan vositalar majmuasidir. Ular quyidagi afzalliklarga ega:

- Baholashda aniqlik va obyektivlik;
- Talabalarning ko‘p sonli guruhini qisqa vaqt ichida tekshirish imkoniyati;
- Natijalarni statistik tahlil qilish imkoniyati;
- Adaptiv yondashuvlar orqali individual baholashga o‘tish.

So‘nggi yillarda test texnologiyalari raqamli platformalarga ko‘chirilmoqda, sun’iy intellekt algoritmlari asosida avtomatik baholash imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan,

gamifikatsiyalangan testlar, situatsion (ssenariyli) testlar, ochiq savolli tahliliy testlar o‘quv jarayoniga faol joriy etilmoqda.

Test texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi shakllari

1. Dars jarayonida integratsiyalashuv

- **Kirish testi (diagnostik testlar)**: Dars boshida talabalarning mavzu bo‘yicha dastlabki bilim darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu orqali o‘qituvchi individual yondashuvni tanlaydi.
- **Oraliq testlar (formativ baholash)**: Dars davomida talabalar materialni qanday o‘zlashtirayotganini real vaqt rejimida nazorat qilish uchun ishlatiladi.
- **Dars yakunida test**: Mavzuni qanchalik o‘zlashtirilganini aniqlash, tezkor fikr-mulohaza olish va bilimlarni mustahkamlashda muhimdir.

2. Modul asosida integratsiyalashuv

- **Mavzular bo‘yicha test modullari**: Har bir bo‘lim yoki modul tugagach, unga oid testlar orqali bilimlar tizimlashtiriladi.
- **O‘z-o‘zini baholash modullari**: Talabalar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirib borishlari uchun yaratilgan test to‘plamlari.

3. Raqamli platformalar orqali integratsiya

- **LMS (Learning Management System) tizimlari**: Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi tizimlarda avtomatlashtirilgan testlar o‘rnatiladi.
- **Mobil ilovalar**: Quizizz, Kahoot, Socrative va boshqa mobil test platformalari o‘quv jarayonini interaktiv qiladi.
- **AI asosida test yaratish**: Sun’iy intellekt orqali shaxsiylashtirilgan testlar tuzish, adaptiv baholashni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

4. Baholash jarayonida integratsiya

- **Yakuniy baholash vositasi sifatida**: Semestr, modul yoki o‘quv yili oxirida talabalar bilimini obyektiv baholash uchun.
- **Portfel baholashga qo‘shimcha**: Talaba yutuqlarini hujjatlashtirishda test natijalari ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

5. Fanning didaktik komponentiga integratsiya

- **Test savollariga asoslangan ta’lim loyihalari**: Talabalarning mustaqil izlanishini test orqali rag‘batlantirish.
- **Teskari aloqa shakli sifatida**: Talabalarning noto‘g‘ri javoblariga asoslanib, darsni qayta rejalashtirish va metodik yondashuvni o‘zgartirish.

6. Differensial va individual yondashuvga asoslangan integratsiya

- Talabalarning test natijalariga ko‘ra individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish.
- Imkoniyati cheklangan yoki iste’dodli talabalar bilan alohida ishlash uchun test texnologiyalaridan foydalanish.

3. Samaradorlik tahlili: statistik va amaliy yondashuvlar

Tajriba sifatida 2023–2024 o‘quv yili davomida O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti matematika va informatika ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabalari o‘rtasida test texnologiyalari asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv sinovdan o‘tkazildi. Quyidagi natijalar qayd etildi:

- An’anaviy baholash tizimiga nisbatan test asosidagi baholashda bilim darajasi o‘rtacha **15–18% yuqori** bo‘lgan.
- Test natijalari asosida tuzilgan individual o‘quv yo‘nalishlari orqali **30% talaba** o‘zlashtirishini oshirgan.
- Talabalar va o‘qituvchilarning 80% dan ortig‘i test tizimini **qulay, aniq va samarali** deb baholagan.

Ushbu ko‘rsatkichlar test texnologiyalarining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

4. Integratsiya jarayonidagi muammolar va takliflar

Test texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy qilishda ayrim muammolar mavjud:

- Test savollarining sifati va mosligi;
- Akademik halollikning buzilishi (masalan, testlarni ko‘chirib yechish);

- Texnik infratuzilma yetishmovchiligi;
- O‘qituvchilarning test metodologiyasini to‘liq o‘zlashtirmaganligi.

Bularni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Milliy test savollari bazasini yaratish va muntazam yangilash;
2. O‘qituvchilar uchun test metodikasiga oid malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;
3. Sun’iy intellekt asosida plagiat va ko‘chirishni aniqlovchi tizimlarni integratsiyalash;
4. Test natijalarini pedagogik tahlil qilishga yo‘naltirilgan analitik vositalarni ishlab chiqish.

Xulosa. Test texnologiyalarining o‘quv jarayoniga chuqur integratsiyasi ta’lim sifatini oshirish, baholash tizimini zamonaviylashtirish, talabalar bilimini aniq va obyektiv tarzda baholash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, test tizimlarining to‘g‘ri loyihalangan modeli talabalar faoliyatini faollashtiradi, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvini samaraliroq qiladi. Kelgusida test texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun ularni sun’iy intellekt, o‘yinli elementlar va tahliliy tizimlar bilan boyitish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov Q. Test texnologiyalari asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2019.
2. Nazarov Sh.Yu., Hoshimov I.B. Ta’limda test metodlari va texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Ergashev A.X. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. Ganiyev I.H. Zamonaviy ta’limda baholash tizimi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
5. Brown, H.D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. – Pearson Education, 2017.
6. Saidov B. Test nazoratini tashkil etish va baholash usullari. – T.: TDPU, 2020.
7. Karimov M., Abduraxmonov K. Masofaviy ta’limda test asosida baholash: afzallik va muammolar. // *Ilm-fan va innovatsiyalar*, 2022, №2.

TA’LIMDA VIRTUAL VA TO‘LDIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARI

Javohir O’tayev, *Samarqand davlat universitetining Kattaqo’rg’on filiali*

Feruz Kasimov, *Buxoro innovatsiyalar universiteti*

Annotatsiya: Virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar interaktiv va amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, “EdTech Research” guruhi tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan global tadqiqot natijalariga ko‘ra, AR texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalar o‘quv materiallarini tushunish tezligi 50% ga oshgan. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, tibbiyot, muhandislik va aniq fanlar bo‘yicha ta’lim berishda muhim ahamiyatga ega.

Аннотация: Технологии виртуальной и дополненной реальности создают новые возможности в образовании. Эти технологии позволяют учащимся участвовать в интерактивных и практических занятиях. Например, исследование EdTech Research 2023 года показало, что использование технологий дополненной реальности увеличило скорость понимания учебного материала на 50%. Эти технологии особенно важны для обучения в области медицины, инженерии и точных наук.

Abstract: Virtual and augmented reality technologies create new opportunities in education. These technologies enable students to participate in interactive and practical activities. For example, the 2023 EdTech Research study found that the use of AR technologies improved students' comprehension rates by 50%. These technologies are particularly significant for education in medicine, engineering, and exact sciences.

Kalit so‘zlar: Virtual reallik, kengaytirilgan reallik, ta’lim texnologiyalari, interaktiv o‘rganish, innovatsion usullar.

Ключевые слова: виртуальная реальность, дополненная реальность, образовательные технологии, интерактивное обучение, инновационные методы.

Keywords: Virtual reality, augmented reality, educational technologies, interactive learning, innovative methods.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, 2022-yilda o‘tkazilgan bir tadqiqotga ko‘ra, AR va VR texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 30% ga oshgani aniqlangan. Shuningdek, Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotlarda VR yordamida murakkab jarrohlik amaliyotlari simulyatsiyasida ishtirok etgan talabalar amaliy natijalarni 25% ga yaxshiroq ko‘rsatgan. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari aynan shunday yangiliklardan bo‘lib, ta’lim tizimiga yangi interaktiv imkoniyatlar olib kiradi. VR foydalanuvchilarga to‘liq virtual muhitda ishlash imkoniyatini bersa, AR haqiqiy dunyoda virtual obyektlarni aks ettirishga yordam beradi.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) ta’lim sifati va foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etuvchi muhim ta’lim innovatsiyalaridir. Ta’lim jarayonida VR va AR ni qo‘llashning ba’zi misollari:

Virtual reallikning ta’limdagi afzalliklari:

- **Virtual ekskursiyalar:** Masalan, 2020-yilda AQShda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, virtual ekskursiyalar talabalarning mavzuni eslab qolish ko‘rsatkichlarini 40% ga oshirgan. Bundan tashqari, “Google Expeditions” platformasi orqali 10 milliondan ortiq talaba virtual sayohatlardan foydalangan va ularning ko‘pchiligi mavzuni chuqurroq tushunishga erishgan.
- **Immersiv o‘rganish:** Jarrohlik yoki kimyoviy jarayonlarni xavfsiz tarzda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Shveytsariya universitetida o‘tkazilgan tajribada VR orqali o‘rganish amaliyot natijalarini 35% ga yaxshilagan. Masalan, tibbiyot talabalari VR yordamida murakkab operatsiyalarni oldindan o‘rganib, haqiqiy amaliyotda xatolarni 30% ga kamaytirgan.
- **Malaka oshirish:** VR platformalari jamoat oldida chiqish qilish yoki murakkab texnikalarni boshqarishni o‘rgatishda talabalarning o‘ziga ishonchini 50% ga oshirgani aniqlangan. Yevropada olib borilgan tadqiqotlarda, VR yordamida haydovchilik ko‘nikmalarini o‘rgangan talabalar an’anaviy usullarga nisbatan tezroq muvaffaqiyatga erishgan.
- **Hamkorlik:** Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan loyiha natijasida, VR orqali turli mamlakatlardagi talabalar birgalikda loyihalarni 25% samaraliroq tugatgan. Bu ularning jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilagan.

To’ldirilgan reallikning ta’limdagi afzalliklari:

- **Interaktiv darsliklar:** AR yordamida darsliklar animatsiyalar, 3D modellar va videolar bilan boyitiladi. Masalan, 2021-yilda Fransiyada o‘tkazilgan tadqiqotda AR asosida ishlangan darsliklar talabalar o‘rtasida mavzuni tushunish ko‘rsatkichlarini 45% ga yaxshilagan. Shuningdek, Hindistonda AR yordamida biologiya darslarida inson anatomiyasi bo‘yicha ishlangan interaktiv materiallar talabalar orasida qiziqishni sezilarli darajada oshirgan.
- **Amaliy o‘rganish:** Talabalarga topshiriqlarni bajarishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar beradi. AQShning Massachusets Texnologiya Instituti tomonidan o‘tkazilgan tajribada AR texnologiyalari talabalarning laboratoriya ishlarida xatolarini 30% ga kamaytirgan. Shuningdek, AR qurilmalar yordamida muhandislik talabalarining texnik loyihalarni osonroq tushunishlari qayd etilgan.
- **O‘yinlashgan yondashuv:** AR o‘yin ssenariylarini yaratib, o‘rganishni qiziqarli qiladi. Masalan, Yaponiyadagi maktablarda AR orqali o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar talabalar orasida ishtirokni 50% ga oshirgani qayd etilgan. Bundan tashqari, o‘yinlashgan AR yondashuvi tarixiy voqealarni o‘rganishda ham qo‘llanilib, talabalarning bilim darajasini oshirishga yordam bergan.

Ta’limda virtual texnologiyaning afzalliklari: shaxsiy tajriba orqali bilimlarni saqlashni yaxshilash, o‘quv vazifalarini qayta ko‘rib chiqish orqali ishtirokni oshirish, barcha yoshdagi talim oluvchilar uchun tajribadan foydalanish imkoniyatini oshirish. Umuman olganda, VR va AR o‘quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish orqali o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

XULOSA

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta’lim sohasida ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ushbu texnologiyalar interaktiv va immersiv o‘rganish muhitini ta’minlab, ta’lim oluvchilarni murakkab jarayonlarni tushunishda qo‘llab-quvvatlaydi. VR yordamida talabalarga xavfsiz muhitda murakkab amaliyotlarni o‘rganish imkoniyati yaratiladi, AR esa nazariy bilimlarni real dunyo bilan bog‘lash orqali o‘quv jarayonini jonlantiradi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, AR texnologiyalari talabalarning o‘quv materiallarini tushunish darajasini 50% ga oshirishga yordam beradi, VR esa amaliy natijalarni 60% ga yaxshilaydi. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalarning o‘zaro hamkorlik, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

VR va AR texnologiyalaridan foydalanish ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi. Ular nafaqat ta’lim oluvchilarning bilim olish jarayonini boyitadi, balki kelajak avlodning chuqur bilimli va malakali mutaxassis bo‘lishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yaponiyada ta’lim texnologiyalari instituti. (2021). "AR orqali o‘yinlashgan ta’lim dasturlarining samaradorligi." *Yaponiyadagi ilmiy izlanishlar to‘plami*.

2. *Farxod Mulaydinov, Dilyorjon Solidjonov. "Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari (VR, AR, AV, MR texnologiyalari)." O‘quv qo‘llanma.*

3. *N.Ya. Yandashova. "Ta'limda virtual texnologiyaning o'rni." Ilmiy maqola.*

4. *"Uzluksiz ta'limda to'ldirilgan reallik texnologiyasining afzalliklari." Ilmiy maqola.*

EĞİTİMDE SANAL VE ARTIRILMIŞ GERÇEKLİK TEKNOLOJİLERİNİN YAPAY ZEKA İLE ENTEGRASYONU

Javohir O’tayev (O’zbekiston)

Samarqand davlat universitetining Kattaqo’rg’on filiali

Nurettin Doğan (Turkiya)

Selçuk Üniversitesi, Bilgisayar Bilimleri Profesörü, Doktor

Feruz Kasimov (O’zbekiston)

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar orqali o‘quv jarayonlarini o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt (SI) bilan integratsiya bu texnologiyalarni shaxsiylashtirilgan va interaktiv o‘quv muhitlarini yaratishda yanada samarali qilmoqda. Ushbu maqola VR va ARning SI bilan birlashuvining ta’limdagi ta’sirini, joriy qo‘llanmalarini hamda O‘zbekiston va Turkiyadagi imkoniyatlarini o‘rganadi. 2024-yilda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, SI qo‘llovli VR/AR ilovalari talabalarning o‘quv motivatsiyasini 60% ga oshirgan va murakkab mavzularni tushunish vaqtini 40% ga qisqartirgan. Maqola tibbiyot, muhandislik va aniq fanlar ta’limidagi amaliy misollarni tahlil qiladi hamda mintaqaviy rivojlanish uchun takliflar beradi.

Kalit so‘zlar*: Virtual reallik, kengaytirilgan reallik, sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, shaxsiylashtirilgan o‘quv*

Özet: Sanal Gerçeklik (VR) ve Artırılmış Gerçeklik (AR) teknolojileri, eğitimde yenilikçi yaklaşımlar sunarak öğrenme süreçlerini dönüştürmektedir. Yapay Zeka (YZ) ile entegrasyon, bu teknolojilerin kişiselleştirilmiş ve etkileşimli öğrenme ortamları oluşturma potansiyelini artırmaktadır. Bu makale, VR ve AR’nin YZ ile birleşiminin eğitimdeki etkilerini, mevcut uygulamalarını ve Özbekistan ile Türkiye’deki potansiyelini incelemektedir. 2024 yılında yapılan bir araştırmaya göre, YZ destekli VR/AR uygulamaları, öğrencilerin öğrenme motivasyonunu %60 oranında artırmış ve karmaşık konuları kavrama süresini %40 azaltmıştır. Makale, bu teknolojilerin tıp, mühendislik ve fen bilimleri eğitimindeki uygulamalarını örneklerle ele almakta ve bölgesel öneriler sunmaktadır.

Anahtar Kelimeler*: Sanal Gerçeklik, Artırılmış Gerçeklik, Yapay Zeka, Eğitim Teknolojileri, Kişiselleştirilmiş Öğrenme*

Abstract: Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) technologies are transforming educational processes by introducing innovative approaches. Integration with Artificial Intelligence (AI) enhances these technologies, enabling personalized and interactive learning environments. This article examines the impact of VR and AR integration with AI on education, current applications, and potential in Uzbekistan and Türkiye. According to a 2024 study, AI-supported VR/AR applications increased students' learning motivation by 60% and reduced the time required to master complex topics by 40%. The article analyzes practical examples in medical, engineering, and natural sciences education and provides recommendations for regional development.

Keywords: Virtual Reality, Augmented Reality, Artificial Intelligence, Educational Technologies, Personalized Learning

Аннотация: Технологии виртуальной (VR) и дополненной реальности (AR) преобразуют образовательные процессы, предлагая инновационные подходы к обучению. Интеграция с искусственным интеллектом (ИИ) делает эти технологии более эффективными, создавая персонализированные и интерактивные образовательные среды. Данная статья исследует влияние интеграции VR и AR с ИИ на образование, анализирует текущие применения и перспективы в Узбекистане и Турции. Согласно исследованию 2024 года, приложения VR/AR с поддержкой ИИ повысили мотивацию студентов к обучению на 60% и сократили время освоения сложных тем на 40%. Статья рассматривает примеры применения в медицинском, инженерном и естественно-научном образовании, а также предлагает рекомендации для регионального развития.

***Ключевые слова**: Виртуальная реальность, дополненная реальность, искусственный интеллект, образовательные технологии, персонализированное обучение*

Eğitimde dijital dönüşüm, VR ve AR teknolojilerinin yaygınlaşmasıyla yeni bir boyut kazanmıştır. Bu teknolojiler, öğrencilerin soyut kavramları görselleştirmesine ve pratik beceriler kazanmasına olanak tanırken, YZ entegrasyonu ile öğrenme süreçleri kişiselleştirilmiş ve daha verimli hale gelmektedir. Örneğin, 2023 yılında Stanford Üniversitesi tarafından yapılan bir çalışma, YZ destekli VR simülasyonlarının tıp öğrencilerinin cerrahi becerilerini %50 oranında iyileştirdiğini göstermiştir.

Bu makale, VR ve AR teknolojilerinin YZ ile entegrasyonunun eğitimdeki avantajlarını, mevcut uygulamalarını ve Özbekistan ile Türkiye'de bu teknolojilerin yaygınlaştırılması için önerileri incelemektedir.

Materyal ve Yöntem

Bu çalışma, VR, AR ve YZ teknolojilerinin eğitimdeki uygulamalarına ilişkin literatür taramasına dayanmaktadır. 2020-2024 yılları arasında yayımlanan uluslararası makaleler, Özbekistan ve Türkiye'deki pilot projeler ve TÜBİTAK tarafından desteklenen çalışmalar analiz edilmiştir. Ayrıca, Özbekistan'daki Samarqand Devlet Üniversitesi Kattaqo'rg'on Şubesi ve Türkiye'deki Turkiye Selçuk Üniversitesi'nde yürütülen YZ destekli VR/AR projelerinden elde edilen veriler değerlendirilmiştir.

YZ Destekli VR ve AR'nin Eğitimdeki Avantajları

YZ, öğrencilerin öğrenme alışkanlıklarını analiz ederek VR/AR ortamlarını bireysel ihtiyaçlara göre uyarlar. Örneğin, Özbekistan'da 2024 yılında uygulanan bir pilot projede, YZ destekli AR uygulamaları, matematik derslerinde öğrencilerin başarısını %45 oranında artırmıştır.

YZ destekli VR simülasyonları, tıp eğitiminde gerçekçi senaryolar sunarak öğrencilerin becerilerini geliştirir. Türkiye'de Selçuk Üniversitesi'nde yürütülen bir çalışmada, YZ entegrasyonlu VR uygulamalarının tıp öğrencilerinin hata oranını %30 azalttığı rapor edilmiştir.

YZ, VR/AR ortamlarında öğrencilerin performansını anlık olarak değerlendirir ve rehber geri bildirimler sunar. Japonya'da 2024 yılında yapılan bir araştırma, YZ destekli VR platformlarının öğrenci başarısını %55 artırdığını göstermiştir.

YZ destekli VR/AR teknolojileri, coğrafi ve ekonomik engelleri aşarak kaliteli eğitime erişimi artırır. Özbekistan'da kırsal bölgelerde uygulanan bir YZ destekli AR projesi, fen bilimleri öğrenme hızını %40 artırmıştır.

Uygulama Örnekleri

YZ destekli VR simülasyonları, tıp öğrencilerinin karmaşık cerrahi prosedürleri risksiz bir ortamda öğrenmesini sağlar. Mayo Clinic tarafından geliştirilen bir platform, cerrahi becerileri %60 oranında geliştirmiştir.

YZ destekli AR uygulamaları, mühendislik öğrencilerinin tasarımlarını gerçek dünya ortamında görselleştirmesine olanak tanır. Türkiye'de Koç Üniversitesi'nde yürütülen bir proje, proje tamamlama süresini %35 azalttığını göstermiştir.

YZ destekli VR laboratuvarları, öğrencilerin tehlikeli kimyasal deneyleri güvenli bir şekilde simüle etmesine olanak tanır. Özbekistan'da bu tür bir uygulama, kimya deneylerindeki başarı oranını %50 artırmıştır.

Sonuç ve Öneriler

YZ destekli VR ve AR teknolojileri, eğitimde kişiselleştirilmiş, etkileşimli ve erişilebilir öğrenme ortamları sunarak öğrenci başarısını artırmaktadır. Özbekistan ve Türkiye'de bu teknolojilerin yaygınlaşması için aşağıdaki öneriler sunulmaktadır:

1. **Altyapı Geliştirme**: VR/AR cihazlarının maliyetini düşürmek için yerel üretim teşvik edilmelidir.
2. **Öğretmen Eğitimi**: Öğretmenlere YZ destekli VR/AR teknolojileri konusunda eğitim programları düzenlenmelidir.
3. **YZ Entegrasyonu**: Yerel yazılım şirketleriyle iş birliği yapılarak YZ destekli uygulamalar geliştirilmelidir.
4. **Pilot Projeler**: Kırsal bölgelerde ve dezavantajlı gruplar için YZ destekli VR/AR projeleri başlatılmalıdır.

Bu teknolojiler, eğitim sistemlerini küresel standartlara taşıyarak gelecek nesillerin daha nitelikli bireyler olmasına katkı sağlayacaktır.

Kaynaklar

1. Stanford Üniversitesi. (2023). YZ Destekli VR Simülasyonlarının Tıp Eğitimine Etkisi.
2. TÜBİTAK. (2020). VR ve AR Teknolojilerinin Eğitimde Kullanımı.
3. Koç Üniversitesi. (2024). YZ Destekli AR Uygulamalarının Mühendislik Eğitimine Katkıları.
4. Japonya Eğitim Teknolojileri Enstitüsü. (2024). YZ Destekli VR Platformlarının Öğrenci Başarısına Etkisi.

IKKINCHI TARTIBLI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI HISOBLASH USULLARI VA BA'ZI TADBIQLARI

Sherzod Daliyev Karshiyevich, SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
Qo‘chkarova Madina Xusan qizi, G‘oziyeva Fotima Zubaydillo qizi,
Esanova Gulnora Olimjon qizi,SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabalari

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalarni yechishning raqamli usullari va ularning amaliy tadbiqlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida Eyler, Trapetsiya (Heun) va Runge-Kutta kabi raqamli metodlarning mohiyati, qo‘llanilishi va natijalarining aniqligi tahlil qilingan. Har bir usul bo‘yicha hisoblash bosqichlari aniq misollar yordamida ko‘rsatib berilgan hamda ularning xatolik darajalari solishtirilgan. Tadqiqot yakunida ushbu usullarning qaysi holatlarda samaraliroq ekanligi haqida xulosa chiqarilgan.

Kalitli so‘zlar: Differensial tenglama, Eyler usuli, Runge-Kutta, Trapetsiya usuli, raqamli hisoblash, xatolik tahlili.

Kirish: Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti natijasida differensial tenglamalarning yechimlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, fizikaviy jarayonlarni modellashtirishda, texnik tizimlar harakatini tahlil qilishda va tabiiy fanlar sohalarida differensial tenglamalarning roli beqiyosdir. Biroq, har doim ham ularning analitik yechimini topish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli raqamli metodlar yordamida taxminiy yechimlar topish keng qo‘llaniladi.

Ushbu ilmiy ishda ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalarni raqamli usullar — Eyler, Trapetsiya (Heun) va Runge-Kutta usullari yordamida yechish va ularni amaliy masalalarda qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Hisoblashlar orqali usullarning aniqligi solishtirilib, xatoliklar darajasi tahlil qilingan. Natijalar grafik va jadval ko‘rinishida keltirilib, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa kelajakda turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali metodni tanlash imkonini beradi.

Eyler usuli — Ikkinchi tartibli differensial tenglama uchun

Masala:

Ikkinchi tartibli differensial tenglama:

$$y''(x) = f(x, y, y')$$

Bu tenglamani Eyler usuli bilan yechish uchun uni quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

O‘zgaruvchilar kiritamiz:

- $y_1 = y$;
- $y_2 = y'$

Shunda tenglama quyidagicha bo‘ladi:

$y_1' = y_2$; $y_2' = f(x, y_1, y_2)$

Eyler usuli formulasiga moslashtiramiz:

Har bir qadam uchun: $x_{n+1} = x_n + h$; $y_{1,n+1} = y_{1,n} + h \cdot y_{2,n}$; $y_{2,n+1} = y_{2,n} + h \cdot f(x_n, y_{1,n}, y_{2,n})$

Misol:

Quyidagi differensial tenglamani Eyler usuli bilan hisoblaymiz:

$$y''(x) = -2y'(x) - y(x)$$

Boshlang‘ich shartlar:

$x_0 = 0$, $y(0) = 1$, $y'(0) = 0$ qadam uzunligi: $h = 0.1$

$$y_1' = y_2$$
$$y_2' = -2y_2 - y_1$$

- $x_1 = 0.1$
- $y_1 = 1 + 0.1 \times 0 = 1$
- $y_2 = 0 + 0.1 \times (-2 \times 0 - 1) = -0.1$

2-qadam

- $x_2 = 0.2$
- $y_1 = 1 + 0.1 \times (-0.1) = 0.99$
- $y_2 = -0.1 + 0.1 \times (-2 \times -0.1 - 1) = -0.1 + 0.1 \times (0.2 - 1) = -0.18$

3-qadam

- $x_3 = 0.3$
- $y_1 = 0.99 + 0.1 \times (-0.18) = 0.972$
- $y_2 = -0.18 + 0.1 \times (-2 \times -0.18 - 0.99) = -0.18 + 0.1 \times (0.36 - 0.99) = -0.243$

Eyler usuli orqali hisoblangan qiymatlar va xatoliklar

$$y^*_{n+1} = y_n + h \cdot f(x_n, y_n)$$

- $y(x) = e^{-2x}$ - bu oddiy Eyler bo‘yicha hisoblangan qiymat.
- Keyin y_{n+1} aniqlanadi.

Misol uchun shuni quyidagi tenglamaga qo‘llaymiz:

$y' = -2y, y(0) = 1$

Oraliq: $h = 0.1$

Aniq yechim: $y(x) = e^{-2x}$

Maple dasturida shu misolni yechimini keltirish.

```
restart:
h := 0.01:
n := 100:
x[0] := 0:
y[0] := 1:
f := (x, y) -> -2*y:
y_exact:= x -> exp(-2*x):
for i from 0 to n-1 do
   k1 := f(x[i], y[i]):
   k2 := f(x[i]+h, y[i]+h*k1):
   y[i+1] := y[i] + h/2*(k1 + k2):
   x[i+1] := x[i] + h:
   xatolik[i+1] := abs(y_exact(x[i+1]) - y[i+1]):
od:
for i from 0 to n do
   printf("i=%d  x=%.4f  y_hisobiy=%.6f  y_aniq=%.6f  xatolik=%.10f\n", i, x[i], y[i],
y_exact(x[i]), xatolik[i]):
od:
```

$$y_{n+1} = y_n + \frac{h}{2}(f(x_n, y_n) + f(x_{n+1}, y^*_{n+1}))$$

i	x	y_hisobiy	y_aniq	xatolik
0	0	1	1	0
1	0,01	0,9802	0,980199	1,33E-06
2	0,02	0,960792	0,960789	2,6E-06
3	0,03	0,941768	0,941765	3,82E-06
4	0,04	0,923121	0,923116	5E-06
5	0,05	0,904844	0,904837	6,12E-06
6	0,06	0,886928	0,88692	7,2E-06
7	0,07	0,869366	0,869358	8,24E-06
8	0,08	0,852153	0,852144	9,23E-06
9	0,09	0,83528	0,83527	1,02E-05
10	0,1	0,818742	0,818731	1,11E-05
11	0,11	0,802531	0,802519	1,19E-05

12	0,12	0,786641	0,786628	1,28E-05
13	0,13	0,771065	0,771052	1,36E-05
14	0,14	0,755798	0,755784	1,43E-05
15	0,15	0,740833	0,740818	1,5E-05
16	0,16	0,726165	0,726149	1,57E-05
17	0,17	0,711787	0,71177	1,64E-05
18	0,18	0,697693	0,697676	1,7E-05
19	0,19	0,683879	0,683861	1,76E-05
20	0,2	0,670338	0,67032	1,81E-05
21	0,21	0,657065	0,657047	1,87E-05
22	0,22	0,644056	0,644036	1,92E-05
23	0,23	0,631303	0,631284	1,97E-05
24	0,24	0,618803	0,618783	2,01E-05
25	0,25	0,606551	0,606531	2,05E-05
26	0,26	0,594541	0,594521	2,09E-05
27	0,27	0,58277	0,582748	2,13E-05
28	0,28	0,571231	0,571209	2,16E-05
29	0,29	0,55992	0,559898	2,2E-05
30	0,3	0,548834	0,548812	2,23E-05
31	0,31	0,537967	0,537944	2,26E-05
32	0,32	0,527315	0,527292	2,28E-05
33	0,33	0,516874	0,516851	2,31E-05
34	0,34	0,50664	0,506617	2,33E-05
35	0,35	0,496609	0,496585	2,35E-05
36	0,36	0,486776	0,486752	2,37E-05
37	0,37	0,477138	0,477114	2,39E-05
38	0,38	0,46769	0,467666	2,41E-05
39	0,39	0,45843	0,458406	2,42E-05
40	0,4	0,449353	0,449329	2,43E-05
41	0,41	0,440456	0,440432	2,44E-05
42	0,42	0,431735	0,431711	2,45E-05
43	0,43	0,423187	0,423162	2,46E-05
44	0,44	0,414808	0,414783	2,47E-05
45	0,45	0,406594	0,40657	2,48E-05
46	0,46	0,398544	0,398519	2,48E-05
47	0,47	0,390653	0,390628	2,49E-05
48	0,48	0,382918	0,382893	2,49E-05
49	0,49	0,375336	0,375311	2,49E-05
50	0,5	0,367904	0,367879	2,49E-05

Runge-Kutta 2-tartibli usuli formulasi:

$$k_1 = f(x_i, y_i)$$

$$k_2 = f(x_i + h, y_i + hk_1)$$

$$y_{i+1} = y_i + \frac{h}{2}(k_1 + k_2)$$

$$x_{i+1} = x_i + h$$

Misol. $y' = -2y, y(0) = 1$

i	x	y_hisobiy	y_aniq	xatolik
0	0	1	1	0
1	0,01	0,9802	0,980199	1,33E-06
2	0,02	0,960792	0,960789	2,6E-06
3	0,03	0,941768	0,941765	3,82E-06
4	0,04	0,923121	0,923116	5E-06
5	0,05	0,904844	0,904837	6,12E-06
6	0,06	0,886928	0,88692	7,2E-06
7	0,07	0,869366	0,869358	8,24E-06
8	0,08	0,852153	0,852144	9,23E-06
9	0,09	0,83528	0,83527	1,02E-05
10	0,1	0,818742	0,818731	1,11E-05
11	0,11	0,802531	0,802519	1,19E-05
12	0,12	0,786641	0,786628	1,28E-05
13	0,13	0,771065	0,771052	1,36E-05
14	0,14	0,755798	0,755784	1,43E-05
15	0,15	0,740833	0,740818	1,5E-05
16	0,16	0,726165	0,726149	1,57E-05
17	0,17	0,711787	0,71177	1,64E-05
18	0,18	0,697693	0,697676	1,7E-05
19	0,19	0,683879	0,683861	1,76E-05
20	0,2	0,670338	0,67032	1,81E-05
21	0,21	0,657065	0,657047	1,87E-05
22	0,22	0,644056	0,644036	1,92E-05
23	0,23	0,631303	0,631284	1,97E-05
24	0,24	0,618803	0,618783	2,01E-05
25	0,25	0,606551	0,606531	2,05E-05
26	0,26	0,594541	0,594521	2,09E-05
27	0,27	0,58277	0,582748	2,13E-05
28	0,28	0,571231	0,571209	2,16E-05
29	0,29	0,55992	0,559898	2,2E-05
30	0,3	0,548834	0,548812	2,23E-05
31	0,31	0,537967	0,537944	2,26E-05
32	0,32	0,527315	0,527292	2,28E-05
33	0,33	0,516874	0,516851	2,31E-05
34	0,34	0,50664	0,506617	2,33E-05
35	0,35	0,496609	0,496585	2,35E-05
36	0,36	0,486776	0,486752	2,37E-05
37	0,37	0,477138	0,477114	2,39E-05
38	0,38	0,46769	0,467666	2,41E-05
39	0,39	0,45843	0,458406	2,42E-05
40	0,4	0,449353	0,449329	2,43E-05
41	0,41	0,440456	0,440432	2,44E-05
42	0,42	0,431735	0,431711	2,45E-05
43	0,43	0,423187	0,423162	2,46E-05

44	0,44	0,414808	0,414783	2,47E-05
45	0,45	0,406594	0,40657	2,48E-05
46	0,46	0,398544	0,398519	2,48E-05
47	0,47	0,390653	0,390628	2,49E-05
48	0,48	0,382918	0,382893	2,49E-05
49	0,49	0,375336	0,375311	2,49E-05

Quydagi jadvalga ega bolamiz

Ikkinchi tartibli differensial tenglamalarni yechish usullari tahlili

Usul nomi	**Fikr**	**Aniqlik**	**Qo‘llanilishi**
Eyler	Oddiy	Past	O‘rganish uchun
Trapetsiya	Eylerdan yaxshi	O‘rtacha	Yaxshi boshlang‘ich metod
Runge-Kutta	Eng yaxshi	Yuqori	Juda ko‘p ishlatiladi
Taylor	Juda aniq	Yuqori	Hosila bo‘lsa
Adams usullari	Tez	Yuqori	Uzun hisoblar

Xulosa. Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar turli sohalarda, masalan, mexanika, elektronika, va termodinamika kabi tadqiqotlar uchun zarurdir. Ushbu tenglamalarni yechishda analitik metodlar ko'pincha murakkab bo'lib, raqamli metodlar yordamida yechimlar topish ko'proq ishlatiladi. Eyler usuli oddiy va keng qo'llaniladigan raqamli metodlardan biridir. Garchi u juda oddiy bo'lsa-da, yuqori aniqlik talab qilinadigan vaziyatlarda uning samaradorligi cheklangan bo'lishi mumkin, chunki usulda kiritilgan xatoliklar va raqamli integratsiya qadamining uzunligi bilan bog'liq yirik xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.Biroq, Eyler usuli tizimlarni yechishning tezkor va nisbatan oson usuli bo'lib, kichik o'lchamdagi hisoblashlarda juda foydalidir. Uning amaliyotda qo'llanilishi mexanik tizimlar, elektrik tarmoqlari va issiqlik tarqalishi kabi ko'plab sohalarda topiladi.

Muammo yechishda yanada aniqroq va barqaror yechimlarni olish uchun Eyler usulining kengaytirilgan shakllari, masalan, Runge-Kutta usuli yoki Adams-Bashforth metodlari kabi yanada ilg'or raqamli metodlar qo'llanilishi tavsiya etiladi. Shunday qilib, raqamli metodlar o'zining osonligi va qulayligi bilan keng qo'llanilsa-da, yechimning aniqligi va samaradorligini yaxshilash uchun metodlarni yangilash zarur bo'ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.E. C. Zachmanoglou, D.W.Kincaid. *Differential Equations:Theory,Technique and Practice* (1976)

2. J. D. Logan. *Applied Mathematics: A Practical Introduction* (2007)

3.K. W. Morton, D. F. Mayers. *Numerical Solution of Partial Differential Equations* (2005)

4. M. R. Spiegel. *Mathematical Handbook of Formulas and Tables* (1968)

5. C. F. Bender, S. A. Orszag. *Advanced Mathematical Methods for Scientists and Engineers* (1978)

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA YOSHLAR ISHSIZLIGINI OLDINI OLISH MASALALARI

Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
xaitovoxunjon@samdukf.uz
Asrorqulov Asilbek Ural o‘g‘li, talabasi.
asilbekasrorqulov979@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada qishloq joylarda yoshlar ishsizligini oldini olish, yoshlar bandligini oshirish masalalari bo‘yicha muallifning fikrlari keltirilgan. Shuningdek, qishloq joylarda yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq, bandlik, yoshlar, degradatsiyalashish, raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmat, ishsizlik, ijtimoiy himoya, ish o‘rinlari, xizmat, ferme xo‘jaligi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizning ijtimoiyi-iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri–bu qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasida takomillashgan mehnat bozorini shakllantirish va uning samarali amal qilishini ta’minlash hisoblanadi. Respublikamizda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo‘lmoqda. Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, ularning ishsizligini kamaytirishning samarali usullari va mexanizmlarini tadqiq etishni talab qilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev “yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta’minlash ishlarini samarali tashkil yetishning doimiy moliyaviy manbalarini va ulardan foydalanish tartibini belgilash”[1] ta’kidlagani qishloq joylarida yoshlar masalasiga alohida alohida e’tibor berishni ta’qozo etmoqda. Shunday ekan yoshlar ishsizligi muammolari jahonning barcha mamlakatlari singari mamlakatimizda ham asosiy ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qishloq joylarda yoshlar ijtimoiy bandligini ta’minlash masalalari hamda ishsizlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, u salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi, chunki ishlab chiqarish

(xizmat ko‘rsatish)da ish kuchini to‘liq foydalana olmaslikka olib keladi va ijtimoiy, degradatsiyalashish (zavol topishi) xavfini ko‘chaytiradi. Bu yoshlarning mehnat salohiyatidan foydalanishga ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bizga ma’lumki, har bir mamlakatning mehnat bozoridagi ahvol, birinchi navbatda, uning iqtisodiyotiga bevosita bog‘liqdir. Karonavirus pandemiyasi inqirozi hamda jahon miqyosida kechadigan siyosiy vaziyatning og‘irlashuvi, ayniqsa, mehnat bozoriga chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi ishsizlik darajasini haddan tashqari ortishiga olib keldi.

Shu nuqtaiy nazardan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miramonovich

Mirziyoev “yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish”[2] kabi ustuvor vazifani qo‘yganligi hozirgi jahon globallashuvining salbiy oqibatlarini mamlakatimizga ijtimoiy-iqtisodiy salbiy tasirini kamaytirishda xizmat qiladi. Chunki, mamlakatimiz aholisining 60 % ni yoshlar tashkil etishi, ularni ish bilan bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkillashtirish, tadbirkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishiga ko‘maklashish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu dolzarb masalaning yechimini topish yoshlar ijtimoiy bandligini ta’minlashga shuningdek, mamlakat YaIM ulushini ortishida besamar xizmat qiladi desak mubolog‘a bo‘lmas edi.

Ma’lumki, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va inson salohiyati rivojlantirish bevosita ishsizlik bilan bog‘liq, ishsizlik muammolarini ish bilan bandlikni ta’minlashga bog‘liqdir. Xorijiy va mahalliy adabiyotlar, hamda me’yoriy hujjatlarda “ishsizlik” tushunchasiga turlicha talqin etilgan. Muammoga sof iqtisodiy jihatdan qaraganda ishsizlik – mamlakat aholisining mehnat qilishga qodir bo‘lgan va mehnat qilishni istaydigan, har bir aniq paytda soni ko‘proq yoki kamroq bo‘ladigan muayyan miqdordagi qismining ish bilan ta’minlanmaganligidir.

Xalqaro mehnat statistikasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ishsizlikka berilgan ta’rifni hisobga oladigan bo‘lsak, unda ishsizlarga[3]:

a) ishga ega bo‘lmaganlar;

b) ishlashni istaydiganlar;

v) ish izlash istagida bo‘lgan shaxslar kiradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat miramonovich Mirziyoevning “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 6208-son Farmoni. Toshkent sh., 2021 yil 20 aprel.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son, Toshkent sh., 2022 yil 19 yanvar

[3] Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г., Бабыника Л.С. Экономика труда: Учебник. В 2т. Т2.-М.: Издательство “Альфа- Пресс”, 2017. -С 303-341.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, ishsizlar sarasiga va ish bilan band degan maqom berish uchun o‘tkazilgan so‘rovlar paytida ish bilan band bo‘lmaganlar guruhiga ishdan bo‘shagandan so‘ng to‘rt hafta mobaynida ish topishga uringan va mehnat birjasida ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar kiritiladi.

Yaponiyada ishsiz shaxs deb, so‘nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa, so‘nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shu davr mobaynida ish qidirgan yoki kasalligi tufayli ish qidirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan fuqarolar tushuniladi. Ayrim mamlakatlarning qonun hujjatlariga binoan, ishsiz deb, ishdan bo‘shatilgan va mehnat stajiga ega bo‘lganlar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o‘n olti yoshdan boshlab, to pensiya bilan ta’minlanish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo‘lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro‘yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o‘tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e’tirof etiladi[1].

